

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI



TURKIY TILLAR FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

ULUG‘BEKOVA GULRUX ULUG‘BEK QIZIning

**«NAZAR ESHONQULNING «GO‘RO‘G‘LI» ROMANIDA
MA’NAVIY-AXLOQIY MUAMMOLAR TALQINI»**
mavzusidagi

BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

Talaba:	G.Ulug‘bekova
Ilmiy rahbar:	f.f.n., dots. S.Matyakupov
Kafedra mudiri:	f.f.n., dots. S.Matyakupov

O‘zbek tili va o‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2022-yil 10-maydagi 4-bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

NUKUS – 2022

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200 - o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 4-«A» kurs talabasi Ulug'bekova Gulruxning «Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» romanida ma'naviy-axloqiy muammolar talqini» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «____» ball («____%») qo'yilsin.

«____» _____ 2022-yil

DAK kotibi:

A.Kamalov

M U N D A R I J A :

KIRISH. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi	4
--	---

I BOB. “GO‘RO‘G‘LI” ROMANINING G‘OYAVIY-BADIIY

XUSUSIYATLARI

1.1. Tasvir ruhiyati hamda badiiy g‘oya mutanosibligi.....	10
1.2. O‘zlikni anglash ifodasida ijodiy individuallik.....	21

II BOB. REALISTIK TASVIR VA FALSAFIY-PSIXOLOGIK TALQIN

2.1. Romanda inson qalbi va abstrakt tushunchalar badiiy talqini.....	32
2.2. “Go‘ro‘g‘li” romani va “Evrilish” hikoyasida o‘xshashlik va o‘ziga xoslik.... ..	41

III BOB. TA’LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA

MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni ta’lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo’yicha metodik tavsiyalar.....	51
3.2. Dars ishlanmasi.....	53

XULOSA	58
---------------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	63
--	----

KIRISH. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Jahon hamjamiyati yosh davlat mustaqillik maqomini rasman e'tirof etishi O'zbekistonda jiddiy islohotlar o'tkazish ehtiyojini yanada teranlashtirdi. Zotan, ma'naviyat va ma'rifatni istiqbol ibtidosi sifatida anglagan yosh avlod tarixga nisbatan qisqa vaqt ichida taraqqiyot, avvalo, «madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liq»ligini tushunib yetayozdi. SHu ma'noda, istiqlool sezgisini mustahkamlash, ong hamda tuyg'uda namoyon bo'layotgan keskin o'zgarishlarni belgilash, qadriyaviy mezonlarni barqarorlashtirishda bilish oliy ratsional bosqichi – adabiyot munosib o'rin egallaydi. Aslida, xalqimiz aqliy salohiyatini namoyish etadigan va kamol toptiradigan badiiy so'z san'ati qay darajada muayyan ahamiyat kasb qilsa, ijod tabiatini ochib beradigan ilmiy tadqiqot ehtiyoji ham shunchalik ustuvorlashadi. Aynan milliy adabiyotda bo'y ko'rsatayotgan jahon madaniyati taomillarini umumlashtirish yangi nazariy-estetik qarashlarni taqozolashi tabiiy, albatta! To'g'rirog'i, o'zgarayotgan dunyoqarash manzaralarini davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta – haqqoniy baholash jarayoni shakliy-uslubiy izlanishlarni kuzatish, ifoda malakasi o'ziga xosligi va poetik g'oya tajribasini idroklashga zamin hozirlaydi.

Ayniqsa, mustaqillik sharoitida ilg'or jahon estetik tajribalarini o'zlashtirish va o'zgacha ilmiy baholash mezonlarini shakllantirish jarayoni yangi bosqichga kirdi. Milliy qadriyatlarga munosabatni qayta tiklash hamda tafakkur madaniyatini yuksaltirish joriy kun adabiyotshunosligi oldiga ham kechiktirib bo'lmas vazifalarni ko'ndalang qo'yadi. Milliy adabiyot tarixi, xususan, romanchilik ijodiy maktabi takomili, tom ma'noda, o'z muvaffaqiyatlari va kamchiliklariga ega. Zotan, «umumiy madaniy saviya roman yozishni o'rgata olmaydi. Tor ma'noda olingan ma'rifat so'zi xayolot quvvatini rivojlantirishdan ko'ra, bo'g'adi». Darhaqiqat, XX asr ingliz mutafakkiri Jon Golsuorsining «roman» va «san'at» tushunchalarini tenglashtirishi bejiz emas. Badiiy shakl tarixi uzluksiz taraqqiy

topish xarakterini tavsiflaydi. Albatta, tinimsiz yangilanib turadigan jarayonda turfa an'analar hamda rang-barang usullar qo'llanmasi mavjudligi odatiy hol! Vaholanki, tushuncha tuyg'usi, nutq maromi va mushohada davomiyligini muayyan tizimga solish mashaqqatli faoliyat sanaladi. Epik miqyos kengligi va teranligi yozuvchidan yuksak iqtidor talab etadi. O'z navbatida, ijodkor fitrati g'oyaviy-estetik yo'nalish mohiyatini oydinlashtirish, inson va davr ruhiyatini yaxlit ifodalash imkoniyatini hosil qilishini inobatga olsak, janr va adabiy mahorat zichligi ijodiy yutuqni ta'minlashi ayonlashadi.

Nazar Eshonqul XX asr adog'i o'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan yorqin iste'dod sohibi sanaladi. Xususan, milliy hikoyachilik va qissachilikda jiddiy izlanishlar olib borayotgan adib ijodida shaxs ruhiyati va jamiyat munosabatlari ziddiyatlari falsafiy teranligini umumlashtirish, hayot haqiqati keskinligi hamda tahlil teranligini tayin etish, tasvir ruhiyatining ifoda mustaqilligi qadar yuksalishiga erishish, muntazam ravishda badiiy shakl ichki intizomini «buzish»ga moyillik va uni yangi asosda qayta tiklashga intilish qabarib ko'rinadi. Binobarin, yozuvchi mudomi «hayotning o'zidan olgan zavqini, o'z yurak dardini, hayajonlarini izhor etadi, o'zi qalamga olgan hayot hodisalarini, personajlar qalbi va ruhiyatini murakkabligi, ziddiyatlari, chinakam nafosati bilan kitobxonga etkaza oladi»¹. Darhaqiqat, adib adabiy talqinida teran falsafiy mantiq shakliy evrilishlari, tahlil ichki takomiliga erishish, so'z madaniyati ma'rifiy-qadriyaviy tugallanmasini barqarorlashtirish singari xususiyatlar kuzatiladi. Unda an'ana, izlanish va tajriba yaxlitligi ustuvorlashadi. Mazkur jihatlar yozuvchi dastlabki romani – «Go'ro'g'li» (Sharq yulduzi, 2012 yil, 1-2-sonlar) asari badiiy xususiyatlari timsolida o'rganilmaganligi tadqiqot mavzui dolzarbligini belgilaydi. Aynan muammoni tasvir ruhiyati individualligi, syujet hamda kompozitsiya uzviyligi va ijodkor fitrati badiiy silsilasida o'rganish joriy adabiyotshunoslik istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydi, deyishga to'la asos mavjud. Zotan, roman badiiy xususiyatlarini nazariy tahlillash uning jamiyat estetik tafakkurida tutgan o'rnini belgilashga yordam beradi.

¹ Normatov U. Ijod sehri. –T.: SHarq, 2007. –B. 104.

Shunday ekan, badiiylik mezonlarini Nazar Eshonqulning «Go‘ro‘g‘li» romani yaxlitligida tekshirish, badiiy butunlik va ijodiy a‘zo munosabati o‘ziga xosligini belgilash, muallif adabiy konsepsiyasi va kompozitsion-janriy tarqoqlik munosabatini ko‘rsatish, yozuvchi estetik idroki va badiiy talqin ruhiyatini anglash hamda ijtimoiy shartlilikini dalolatlash, adib uslubi o‘ziga xosligini aniqlash mavzu tanlovi dolzarbligini tasdiqlaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslik nazariyasi va estetikasi joriy bosqichida davr ruhiyatini tugal hamda yaxlit ifodalash imkoniyatini beradigan janr – roman badiiy xususiyatlari turli aspektlar davriy intizomida muayyan darajada yoritilgan¹. Aslida badiiylik mezonlari muammosi mutaxassislar doimiy diqqat markazida turadigan masalalardan hisoblansa-da, ilmiy tizimda atamaning o‘ziga xosligi, uning mazmun-mohiyati to‘g‘risida yaxlit nuqtai nazar mavjud emas. Ayniqsa, uning ifoda yaxlitligi va taraqqiyot darajasi, tasnifi va tavsifi haqidagi qarashlar bir-biridan keskin tafovutlanadi. SHunga qaramasdan, istiloh mohiyati va uning nazariy xususiyatlari tahlili jarayonida yuzaga kelgan tajriba masalani teran tasavvur qilishga yordam beradi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, badiiy mezonlar janr tabiatini belgilaydigan, uning muntazam harakatdagi jarayon ekanligini dalolatlaydigan tizim sanaladi. Aniqrog‘i, tushuncha hamisha umummohiyatdan mavhumlikka intiladi. Mavjud holatni hisobga olgan holda, bitiruv malakaviy ishda roman badiiy xususiyatlarini janr-adabiy mahorat uzviyligida o‘rganishni lozim topdik.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kafedrasining «O‘zbek va turkiy xalqlar adabiyotining o‘zaro aloqasi, taraqqiyot tendentsiyalari:

¹ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.; Nazarov B. Bu sehrli dunyo. – T.: Adabiyot va san’at, 1980.; SHarafiddinov O. Hayot bilan hamnafas. – T.: Yosh gvardiya, 1983.; Mirvaliev S. O‘zbek romani. – T.: Fan, 1969., Mirvaliev S. Roman va zamon. –T.: Fan, 1983, Qo‘shjonov M. O‘zbek romanchiligining rivojlanish bosqichlari va janr xususiyatlari // Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. Birinchi jild. –T.: Fan, 1991. –B. 299-382, Karimov N. Oybek. –T.: YOsh gvardiya, 1985, Normatov U. Nasrimiz tamoyillari. –T.: Adabiyot va san’at, 1978, Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma’naviyat, 2000, Umurov H. Badiiy ijod asoslari. –T.: «O‘zbekiston» 2001, Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004, Solijonov Y. Nutq va uslub. –T.: Cho‘lpon, 2002, Boltaboev H. Nasr va uslub. –T.: «Fan», 1992, Jo‘raev T. Ong oqimi va tasviriylilik. –T.: «Fan», 1994, Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. –T.: «Fan», 1977, Mirzaev I. O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslubiy rang-barangligi. –T.: «Fan», 1983, Quronov D. CHO‘lpon nasri poetikasi. –T.: «SHarq», 2004. va b.

adabiy ta'limda innovatsion texnologiyalar» deb nomlangan ilmiy tadqiqot mavzusi hamda 2015-2016 o'quv yiliga mo'ljallangan bitiruv malakaviy ishi mavzulari banki doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Roman janri badiiy xususiyatlari, bir tomondan, qadriviyaviy munosabatlar (ijtimoiy yo'naltirilganlik) bilan bog'liqligi, ikkinchi tomondan, vazifadoshlik nuqtai nazardan poetik shakl tarixiy takomili qonuniyatlariga daxldorligini nazariy-estetik jihatdan umumlashtirish ish yo'nalishini tayin etadi. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad roman badiiy xususiyatlari o'ziga xosligini Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» asari ijodiy yaxlitligi misolida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot vazifalari quyidagicha belgilandi:

- Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» romanida kuzatiladigan uslubiy tendensiyalar botiniy uyg'unligini ko'rsatib berish;
- asarda adabiy talqin yo'sini o'ziga xosligini tavsiflash;
- tasvir ruhiyati, ifoda mustaqilligi va kompozitsion yaxlitlikning tutgan vazifaviy o'rni hamda ahamiyatini aniqlash;
- ijodkor shaxsi va janr imkoniyatlari uzviyligining jamiyat estetik tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan hissasini oydinlashtirish;
- voqelik va tahlilaro mushtaraklik ifoda hamda tasvirni bir-biriga ulashga bog'liq murakkab jarayon ekanligini tasdiqlash;
- shakl va mazmun badiiy uyg'unligi nazariy mezonlarini baholash;
- reallikning badiiy ifodaga o'tish yig'iqligini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti. Milliy istiqlol davri o'zbek nasrida jiddiy tajribalar o'tkazayotgan va badiiy tafakkur miqyoslarini yangilashga moyil ijodkor Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» romani (Sharq yulduzi, 2012- yil, 1-2-sonlar) bitiruv-malakaviy ishi tadqiqot obyekti vazifasini bajaradi.

Tadqiqotning predmeti. Nazar Eshonqul «Go'ro'g'li» romani badiiy ifoda xususiyatlarini o'rganish tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan Kadrlar

tayyorlash Milliy dasturidagi ko'rsatmalar, Prezidentimiz I.Karimovning milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirishga doir nazariy asarlari tadqiqotga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishning ilmiy yangiligi. Badiiylik asoslari va mezonlari, ifoda tabiati va roman janri taraqqiyoti adabiyotshunoslik tizimida muayyan yo'nalishlar aspektida o'rganilgan bo'lsa-da, Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» romani badiiy tadriji misolida maxsus tadqiq etilmagan. Mavzuning ilmiy yangiligi, eng avvalo, muammo ilk bor maxsus tarzda, yangicha nazariy-estetik qarashlar asosida umumlashtirilishida ko'rinadi.

Ishda masalaning quyidagi jihatlari yoritiladi:

- badiiylik asoslari umumiy va xususiy qirralarini tavsiflash;
- syujet va kompozitsion tarh alokadorligini nazariy jihatdan asoslash;
- adabiy talqin falsafiy salmog'ini nazariy umumlashtirish;
- adabiy mahorat va uslubiy qo'llanma o'ziga xosligini belgilash.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari hozirgi o'zbek nasri umumiy manzarasini belgilash, so'z hamda matn munosabati yaxlitligi xususiy holatini tasavvur etishga yordam beradi. Undan zamonaviy o'zbek nasri halqasida Nazar Eshonqul badiiy izlanishlari maqomini tayin etishda, adib ijodiga bag'ishlangan risola, kitob va adabiy portret yaratish hamda to'ldirishda, oily ta'lim tizimida maxsus kurs va seminarlar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Bitiruv malakaviy ishi Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilindi. Mustaqillik davri romanchiligi misolida kurs ishi bajarildi va Nukus DPI akademik litseyida Nazar Eshonqul asarlarini o'rganish yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha seminar tashkil etildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 64 sahifani tashkil etadi.

I BOB.

“GO‘RO‘G‘LI” ROMANINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

1.1. Tasvir ruhiyati hamda badiiy g‘oya mutanosibligi

«Roman janri tasvir ko‘lamining kengligi, xalq hayotining muayyan davrini har tomonlama tahlil eta olish imkoniyatiga egaligi, murakkab xarakterlar, insoniy taqdirnlarni ifoda etishga qodirligi jihatidan har qanday davr va millat adabiyotining qiyofasini belgilaydi. Bugungi o‘zbek romanchiligidagi shakliy-uslubiy va ifodaviy izlanishlarga nazar solinsa, janr taraqqiyotida teran ichki siljishlar sodir bo‘layotganligi ko‘rinadi. Bu hol hayotiy hodisalar haqidagi fikr salmog‘ining ortishiga, insoniy tuyg‘ular ifodasiga e‘tiborning kuchayishiga olib keladi»¹, - deya yozadi I.Yoqubov. Darhaqiqat, badiiy shaklning mazmun-mohiyatini belgilagan asosiy estetik taomillar sifatida tubandagilarni ko‘rsatish mumkin:

a) romanda jamiyat quvvat hofizasining shaxs manfaat-ehtiyojlariga tutashuvi; b) ijtimoiy ongning badiiy qadriyat tizimiga yo‘naltirilishi; v) janr taraqqiyotida muntazam mantiqiy teranlashuv kuzatilishi; g) ijodiy yaxlitlik davr ruhiyati va millat ma‘naviyatini muayyan tizimga solishi. Joriy nutqlarning barchasi romaniy tafakkurning ustuvorlashib borayotganligini ko‘rsatadi. Aslida, pirovard adabiy yangilanish ham bevosita, ham bilvosita joriy badiiy shaklda bo‘y ko‘rsatadi. Negaki, unda «hayotni atroflicha badiiy tahlil etishu yaxlit badiiy konsepsiyani ifodalash imkonini beruvchi»² xususiyatlar jamlanadi. SHu o‘rinda romanchilikning jahon badiiy so‘z madaniyatida turfa andozalari mavjudligi hamda muttasil yangilanib borishini hisobga olsak, janr salmog‘i yanada oshadi. Talqinda teranlik va batafsillik imkoniyati yuqoriligi, badiiy munosabatlar muayyan intizomga bo‘ysunishi mohiyatan joriy shakl qiyofasini belgilaydi. SHu ma’noda, janr va kompozitsiya tig‘izligini uslubiy bog‘lam hosil qilishini e‘tirof etish joiz. Mohiyatan esa «uslub – yozuvchi falsafasi in’ikosi. San’atkor falsafasi bus-butun, teran namoyon bo‘ladigan janr esa, roman. Boshqacha aytganda, roman

¹ Yoqubov I. Badiiy – estetik so‘z sehri. –T.: «TDPU», 2011. –B. 123.

² Quronov D. CHo‘lpon nasri poetikasi. –T.: «SHarq». 2004. –B.11.

– yozuvchining olam va odam, zamon va makon haqidagi falsafasi, ijodkor borlig'idagi rosa yetilgan tafakkur, dunyoni anglash konsepsiyasi ko'rsatkichi»¹. Ta'rifda bir nechta jihat e'tiborni tortadi. Birinchidan, uslub badiiy yaxlitlikni ta'minlovchi kategoriya, ikkinchidan, atama ijod falsafasi hamda hayotiy idrok konsepsiyasini bir-biriga tutashtiradi, uchinchidan, adabiy ko'rsatgich ijodkor fitrati boshqaruvini tayin etadi, to'rtinchidan, ifoda va tasvirning mantiqiy taraqqiyoti romanda to'laqonli in'ikos topadi. Binobarin, uslub ham jamiyat hayotidagi evrlishlarni, ham inson ruhiyati, botiniy olamini, ham umuminsoniy g'oyalarni butun-murakkabligicha o'zida uyg'unlashtirishi ham tushuniladi. SHu ma'noda uslubni – dunyoqarash, til, did, adabiy-estetik ideal, mahorat masalalari bilan yaxlit hodisa sifatida o'rganish talab etiladi; ijodkorning ulkan san'atkorligi g'oyat yorqin siyratga ega ekanligini kashf etishga chorlaydi:

Endi tabiiyki, yordamchining o'zi ajablandi. Bu idorada hali hech kim yordamchining nomidan xodimni rahbar huzuriga chorlamagandi. Mabodo chorlabdimi, biron asos bor. Yordamchi shoshib qoldi. Agar N.ni rahbar chaqirgan bo'lib, uning o'zi kotibaga ro'yxatni chalkashtirib bergan bo'lsa-chi? U shoshib ichkariga kirib ketdi. Yordamchining dovdiraganini ko'rgan va boya norozi bo'lib gapirgan dahlizdagi hamkasbining birdan popugi pasaydi. N.ga u xuddi qatl oldidan shafqat so'rayotgan mahkumday tikilib turardi. Yuzida ayanch bir ifoda zuhr etgan edi. Dahlizda mojaroning davomi qanday tugashini kutib turganlar bir unga, endi nima bo'ladi, shafqat qiladimi, yo'qmi degan savol nazari bilan bir N.ga qarardi. Buni sezgan hamkasbi tinmay burnini torta boshladi. SHu payt qo'lida bir to'da qog'oz ko'targan yordamchining o'zi chiqib qoldi. U N.ni ko'rib, uf tortdi-da, bosh chayqab qo'ydi.

– Bilasizmi, – dedi u qo'lidagi qog'ozga ko'z tashlab olarkan, – bu erda anglashilmovchilik yuz beribdi. K.ni kimdir N. deb yozib yuborgan. Oqibatda sizga yanglish xabar berilgan. Albatta, buning tagiga etib, aybdorni sizdan uzr so'rashga majbur qilamiz.

¹ Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. -T.: «SHarq». 2007. –B. 70.

Hamkasbi yengil nafas oldi. U voqeaning aynan shunday yakun topganidan xursand bo'lganini yashirib o'tirmadi ham¹.

Asosiy mohiyat ilg'amini xarakterlaydigan tafsilotda mushtaraklik mavjud. Real voqelik drammatizmini kuchaytirish, syujet halqalarini takomilini belgilaydigan g'oya zalvori (anglashilmovchilik) hayotiy ikir-chikirdek tuyulsa-da, badiiy maqsad ro'yobga chiqishini ta'minlaydigan tayanch markaz sifatida namoyon bo'ladi. N.Eshonqul «Go'ro'g'li» romani mantig'ida muhim ijtimoiy-axloqiy talqin falsafiy taraqqiyoti ko'zga tashlanadi. Aniqrog'i, adib umumlashtiruvchi qahramon (N.) maishiy solnomasini yarata olgan. Jamiyat va personaj orasidagi munosabatlar: xatti-harakat o'ziga xosligi, fe'l-atvor tavsifi hamda muloqotlar vositasida gavdalanadi. Eng muhimi, ijtimoiy chiziq asosida faoliyat yuritgan yetakchi obraz bosh g'oyaga «ko'rinmas ip bilan» bog'lanadi. Inson manqurtlashuvi faqat va faqat mafkura tazyiqi yordamida amalga oshadi. Aslida, mas'uliyat hamda mezonga nisbatan daxlsizligi to'la cheklangan kishilar tiynatini joriy mayl egallashi qonuniy holat. Tabiatan muayyan ijtimoiy zo'riqishga mahkum ruhiyat ko'r-ko'rona e'tiqodga bog'lanib qoladi. SHu boisdan, qahramonda aks etgan xarakter turg'unligini o'quvchi odatiy hodisa sifatida qabul qiladi.

Jamiyat quvvat hofizasi va shaxs manfaat-ehtiyojlari muntazam yangilanib turadi. Mavjud jarayon tuyg'u va ong tig'izligiga kuchli ta'sir o'tkazadi. O'z navbatida, davr ruhiyati muhim qirralari ijodkor fitratida voqelanadi. Adabiy tabdilda zohir hamkorlik hamda ziddiyat, eng avvalo, mohiyat shakli va uslubida in'ikos topadi. To'g'rirog'i, tasvir shakli va ifoda uslubi mutanosibligi mazmun kategoriyasini yuzaga chiqaradi. Ayni paytda, romanchilik tizimida kuzatiladigan har bir tajriba milliy va jahon adabiy an'analari sinteziga tutashadi. Biri ikkinchisini taqozo etadigan aspektda ijtimoiy ong va tashqi muhit shaxsiy kuzatuv maydoniga payvandlanishi qabarib ko'rinadi. Ta'kidlash joiz, tasvir va ifoda sintezi estetik tafakkur kengligi hamda individual yondoshuv teranligini namoyon

¹ Nazar Eshonqul. Go'ro'g'li // SHarq yulduzi, 2012 yil, 1-son, -B. 57.

qiladi. Jumladan, Nazar Eshonqulning «Go‘ro‘g‘li» romanida yangilanayotgan badiiy shaklning ichki taraqqiyot belgilari o‘z yorqin tajassumini topgan:

N. o‘zini battar noqulay seza boshladi. To‘g‘ri, rahbar hamisha ham hammani qabul qilavermaydi, ayniqsa, N.ga o‘xshagan lavozimdagilarni. Ammo qabul qilishini ham favqulodda hodisa deb bo‘lmaydi. Sirasini aytganda, ostonada o‘zini ko‘rish uchun talashib turishga arziydigan yangilikmas. Bu borib turgan maynavozchilikning o‘zi. Qolaversa, ular N.ga fikrini bir joyga to‘plab olishiga, demak, rahbar bilan bo‘ladigan savol-javobga tayyorlanishiga xalaqit berishayapti. Lekin bu gaplarni aytib, ular bilan bahslashib o‘tirishga vaqti yo‘q edi. Mabodo, ularga shu yoqarkan, bilganlarini qilishsin¹.

Nazariy muhokamalarda estetik qadriyat tayanch nutqi ifoda mohiyati va aniqligini etakchi mezon darajasiga ko‘tarishi e’tirof etilgan hodisa. Hayotiy aqida hamda tasvir ruhiyatini adabiy janr tushunchasi birlashtiradi. Roman badiiy shakli tadqiqoti uning predmeti qamrovi kengligi, poetik munosabatga ta’sir o‘tkazadigan ichki va tashqi tamoyillar jamuljamligi, ijodiy talqin mustaqilligi teranligi bilan muayyan salmoq kasb etadi. Estetik ong janr aniqligini asoslaydi. Badiiy shakl joriyligi voqelikka ijodiy munosabatni uyushtiradi. Hissiy idrok uzvi tasavvur yaxlitligini taqozo etadi. Demak, badiiylik mezoni va imkoniyati mantiqiy tadriji atama miqyosi a’zolari rang-barangligini tasdiqlaydi.

«Badiiylik – san’atning, jumladan, so‘z san’atining asosiy, doimiy xususiyati. Juda qadim zamonlardan buyon hozirga qadar ko‘plab olimlar badiiylikni xilma-xil talqinlar, ta’rif-u tavsiflar etib kelishadi. Ammo biror bir olim badiiylik haqidagi mening talqinim to‘g‘ri, deb da’vo qila olmaydi. Chunki san’atning qoni va joni bo‘lmish bu hodisaning sir-sinoatlari beadam bo‘lib, u har bir davr adabiyotida, uning turlicha yo‘nalish va oqimlarida, har bir milliy adabiyot va uning ayricha olingan namoyondasida o‘ziga xos tarzda, o‘ziga xos miqyos va darajada namoyon bo‘ladi»¹ - deya yozadi adabiyotshunos-olim B.Sarimsoqov. Darhaqiqat, tushuncha qamrovi nihoyatda keng. Unda g‘oya adabiy harakat

¹ Nazar Eshonqul. Go‘ro‘g‘li // SHarq yulduzi, 2012 yil, 1-son, -B. 42.

¹ Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: «Fan», 2004, 3-bet.

miqyoslarini uyushtirish, tasvir obyekti tanlovi, ijtimoiy-siyosiy vaziyat yaqqolligi hamda ifoda predmeti xoslanganlik darajasi qamrab olinadi. Binobarin, axloqiy-psixologik mantiq uzviyligi jamiyat quvvat-hofizasini belgilaydi. Davr ruhiyati zichligi qahramon faoliyatiga singdirilgan adabiy talqinni ifodalaydi.

Har bir badiiy asar mohiyatini tushunishning muayyan sharti unga ijodkor dunyoqarashi yaxlitligi sifatida qarash bilan izohlanadi. Modomiki, matn ijodiy chambarchaslik hosilasi ekan, mazmun uni tashkil qilayotgan ifoda yo'sinining o'ziga xosligiga payvandlanadi. SHu boisdan, buyuk rus munaqqidi M.M. Baxtin badiiy asarni nutqiy jarayonning bir zanjiriga mengzaydi². SHu ma'noda, muloqot tizimi adib dunyoqarashi, qahramon xarakteri va sharoit taqozosi o'rtasidagi mantiqiy aloqani mustahkamlaydi. Vaholanki, qahramon iroda yo'nalishini belgilaydigan omillardan biri xarakter va muhit keskinligiaro o'ram hosil qilsa, ikkinchi jihat, nutqiy jarayonni to'liq individuallashtirishga tutashadi:

– Men ham shu fikrdaman, – dedi garchi so'ramasa ham xijolatpazlikdan tezroq qutulish uchun boyagi hamkasbi. – Umuman, biz K. bo'lamizmi, O'. bo'lamizmi yoki T. bo'lamizmi, farqi yo'q, hammamiz shu idoraning xodimlarimiz. SHuning uchun kim deb chaqirish muhim emas. K. bu N. degani, N. esa K. degani. Biz hammamiz bir odammiz. Nomning farqi yo'q, – u gapini tasdiqlatish uchun yordamchiga qaradi. Yordamchi unga bosh silkib qo'ydi. U o'ziga fikrdosh topilganidan xursand edi. Lekin aynan oxirgi gap N.ni tutaqtirib yubordi. U shu paytgacha iloji boricha xotirjam gaplashishga harakat qilayotgan edi. CHalkashtirgan o'zlari. Demak, aybdor ham o'zlari. Nega endi bu ayblaridan ko'z yumib, masalani boshqa yoqqa burishayapti. Tovushini ko'tarib, bir oz jahl va hayajon bilan hamkasbiga e'tiroz bildirdiki, hammaning nazarida uning norozi ohangga to'lib-toshgan tovushidan devorlar ham zirillab ketganday bo'ldi¹.

Sobiq Ittifoq o'rnatgan qattol siyosat – zo'ravonlik aqidasi mana shu lavhada yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonida ikkala hamkasb mavjudligini yo'qotgan insonga achinishmaydi, balki o'zlariga qilingan tazyiqdan

² Baxtin M. Estetika slovesnogo tvorchestvo. –M., 1979. –S. 254.

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 59.

noroziligini bildirishadi. Mavjud vaziyat vositasida hukmron mafkura tizimida g'oya va uning amaliy ifodasi orasida keskin tafovut borligini ilg'ash qiyin emas. Ta'qib va qo'rquv asosiga qurilgan jamiyat qonunchiligi uchun inson qadrigimmati, sha'ni bir chaqa! Buni muallif matn to'qimalariga yoyilib ketgan nozik poetik shtrixlar vositasida mantiqan asoslaydi. E'tiborli jihat shundaki, chirkin tuzum illatlari aynan boshqaruv tizimiga payvandlanadi. SHu holat o'ziyoq asarda namoyon fojeaviy ohangni yanada quyuqlashtiradi. Adabiy talqinda g'alati ziddiyatni kuzatish mumkin: bir tomondan, yozuvchi ruhiyat tahlilini qahramonlar munosabatiga ko'chiradi, ikkinchi tomondan, personaj iroda yo'nalishini ijtimoiy shart-sharoitga bog'lagan san'atkor hayot haqiqatini qabariq tasvirlaydi. Mazkur jihat xarakter ichki olami ziddiyatlari va ijtimoiy keskinlik orasida mantiqiy uzilishlarni hosil qiladi. Inson irodasi murakkabligi ifodada xarakterlararo ixtilof va ijtimoiy muhit psixologiyasi taranglashuviga borib taqaladi. Asarda adib ma'naviy pozitsiyasi hamisha xolislikka intiladi. Aniqrog'i, «Go'ro'g'li» romanida har bir qahramon o'z shakllanish va taraqqiy topish tadrijiga ega. Hatto Dramaturg, Yordamchi, Kotiba kabi ikkinchi plandagi obrazlar to'laqonliligi ham turli nuqtalar jamuljamida namoyon bo'ladi. Voqelik drammatizmi yozuvchi xolis munosabatini dalolatlash barobarida inson qiziqish-manfaatlari va ehtiyojlarini aniqlashtiradi.

Badiiy muhokama inson xakteri murakkabligi, ruhiy holat va vaziyatlarda muttasil o'zgarib turishi, qahramon faoliyati shart-sharoitga aloqadorligi, favqulodda hodisa uning hayoti o'zgarishini ta'minlaydi. Bu jihat odamzot fe'l-atvorining chigalligi, voqelik shaxs ko'ngliga uzluksiz hissiy ta'siri hosilasi. Ayni paytda, ichki olam sir-asrori ma'naviy daxlsizligi tahlil haqqoniyligiga yo'l ochadi. «Go'ro'g'li»da qahramon turli vaziyat hamda jug'rofiy sharoitlarga tushib qoladi, insonlararo ijtimoiy munosabatlar o'zgaruvchan xarakter va ruhiy olam turfa xil qirralarining bir-biriga o'tib turishini tavsiflaydi. Aslida obraz tub mohiyati inson mukammalligini asoslashga daxldor emas, unda yaxshi xislatlar yomon xulq-atvorga qorishib ketadi. Binobarin, inson tashqi faoliyati uning ruhiy olamida shakllangan amaliy boshqaruv tizimining namoyon bo'lish tarzi samarasi hisoblanadi. Aynan ijtimoiy faoliyat xatti-harakat, urf-odat, ong va tuyg'u

miqyoslarini nazorat qiladi. Faqat ruhiy holatdagina inson asl mohiyatiga yaqinlashadi. Tasvir murakkabligi va serqirraligi adabiy mohiyat rang-barangligini jilvalantiradi, qizig'i shundaki, odamzot hayotiy pozitsiyasi doimo cheklangan: umuminsoniy qadriyat va xislatlar nisbiy xarakteriga ega, har bir personaj fe'l-atvori beqarorligi ijtimoiylik darajasiga tutashadi. Qahramon ichki dunyosi tadrijini belgilash va ruhiyat mintaqalari rang-barangligini mantiqan asoslash badiiy obraz yaratish mezoni hisoblanadi. Aslida badiiy xarakter turfa ruhiy holatlar nisbatiga asoslanadi. Taassurot va kechinmalardan umumkayfiyatga evrilish obraz harakat yo'nalishini tasdiqlaydi. Har bir badiiy talqinda ratsional rivoya texnikasi tahlil izchilligini ta'min etadi. Odatda, turli-tuman falsafiy umumlashmalar mavjudlik jumbog'ini anglash uchun harakat qiladi. Rivojlanayotgan harakat dinamizmi xarakter iroda yo'nalishi hamda tugalligini ifoda markaziga ko'taradi. Qahramon faoliyatidan farqli o'laroq uning tafakkur tarzi erkin va mustaqil. Mana shu erkinlik va mustaqillik darajasi odamzot murakkab fe'l-atvori, yashash maydonini tashkil etadi. SHunga qaramasdan, ong mustaqilligi shartli mohiyatga ega, personaj o'y-xayoli jamiyat taqozosidan kelib chiqadi. Aynan ob'ektiv mohiyat inson hissiyot kechimida shaxsiy ahamiyatga daxldorlik kasb etadi:

Birdan zalga sukut cho'kdi. Hakamlar bir-biriga qarab olishdi. Sud kotibi N.ga tikilib qoldi, keyin oldidagi qog'ozga nimanidir shoshib yoza boshladi. Nazoratchi esa muhim kashfiyot qilgandek piyolani baland tutib turardi. Rais o'rnidan turib, guvohning oldiga keldi. U piyolani aylanib ko'rib chiqdi. Hatto tagiga ham qaradi. Keyin joyiga borib o'tirib, sheriklari bilan gaplasha boshladi. Guli esa yelkasida turgan qandaydir mo'ylovdorning qo'lini behuda olib tashlashga uringancha, piyoladan ko'zini uzmasdi. Rais birdan bolg'ani urdi¹.

Azal-azaldan san'at inson mayli to'kisligini o'rganishga intiladi. Istak hamda imkon orasida kuzatiladigan tafovut uning hayotiy qamrovini belgilaydi. O'z navbatida, har bir adabiy shakl odamzod xarakteriga singdirilgan «mavjudlik jumbog'i»ni xoslanganlik darajasida hal etishga harakat qiladi. Aniqrog'i, janr

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 64.

ichki uyushmasi va estetik tanlov chegarasi shuni taqozolaydi. SHu ma'noda, romaniy tafakkur tizimi adabiy mushohada mantiqiy taraqqiётini tugal va yaxlit, tuyg'u va ong tutashuvini to'liq va batafsil, tasvir va ifoda bir-biriga o'tib turishini ixcham va sqiq tarzda jilvalantirish quvvatiga ega. Binobarin, inson faol plastik mohiyatini holat va harakat uyg'unligida umumlashtirishga moyillik badiiy munosabat epik miqyoslari kengligini asoslaydi. «Roman personajlarning xatti-harakatlarini va hatto ularni qurshab olgan manzaralarni tasvirlar ekan, buni faqat bir maqsadda – kitobxonga ruhiy harakatni kuzatishga imkon berish maqsadida qiladi»². Unda janr ijodiy boshqaruvining qotishga moyillashgan taomillari, shakliy barqarorlik ta'minoti ehtiyoji hamda badiiy ittifoqda ijodiy a'zolarining vazifadoshligi qabarib ko'rinadi.

Sud manzarasi tasvirlangan lavhada inson omiliga munosabat yorqin ifodasini topgan. O'z tirikligini tasdiqlashga jazm qilgan N. rasmiyat va buyruqbozlik qanday qudratga ega ekanligini his qiladi. Hakam hamda nazoratchilar ijrochi maqomini bajaradi. Hujjat hatto inson iroda yo'nalishidan ustun turadi. Aslida har bir janr hayotiy materialni qayta ijodiy shakllantirish jarayoniga o'ziga xos tarzda yondashadi. SHakllararo aloqa va ziddiyat hajmi aynan usul-vositalar turfaligini tashkil etadi. Unda matn tizimi uzviy taraqqiyoti va badiiy mantiq maqsadi qorishib ketadi. Ayni paytda, janriy raqobat badiiy vazifadoshlik imkoniyatlarini cheklaydi. Buyuk rus munaqqidi M.M.Baxtin roman xususiyatlari tafovutini uchga ajratadi: birinchidan, anglash tizimi rang-barangligiga bog'liq va unda in'ikos topadigan uch uslubiy o'lcham ifodasi, ikkinchidan, asarda adabiy obrazning vaqtinchalik miqyoslari tub o'zgarishlar hosilasi, uchinchidan, zamonaviylik va uning tugallanmagan mohiyatiga maksimal yaqinlashadigan adabiy obraz yangi mintaqasini tashkil etish vositasi¹. Ta'rifda bir nechta nuqtalar mavjud: dastavval, oliy shakl – asar tili ong nutqiy sarhadlarini kengaytiradi, ikkinchidan, matnda badiiy makon va zamon ijodkor fitratiga bo'ysundiriladi, uchinchidan, yangi adabiy voqelik ijtimoiy borliq bilan bo'ylashadi. Unda hayot haqqoniyliги va tasvir

² Jahon adiblari adabiyot hakida. –T.: «Ma'naviyat», 2010, 315-bet.

¹ Baxtin M.M. Literaturno-kriticheskie stat'i. –M.: Xudojestvennaya literatura, 1986. –S. 399.

haqqoniyliги bir-biriga tutashadi. Aniqrog‘i, obyektiv mohiyat mavhumliги va sub‘ektiv ibtido uchinchi qutb – badiiy munosabatni shakllantiradi:

N.ning bir o‘zi sahnada turar, oyoq ostida esa turli qog‘ozlar sochilib yotardi. N. hakamlar stolidagi hujjat uyumlariga bir pas qarab turdi. Lekin baribir qiziqish ustun chiqdi. U o‘zi ustidan qanday hujjatlar to‘planganini bilgisi keldi. ”Bular shuncha hujjat to‘plab, endi qarovsiz qoldirib ketishdi. Hujjatga munosabat shunday bo‘lgach, chalkashlik yuz beradi-da”. U borib hujjatlarni ochib ko‘ra boshladi. Oldin birinchisini, keyin ikkinchisini va qolganlarini varaqlab chiqdi. Bular sarg‘ayib ketgan eski gazeta qiyqimlari, maktab bolalari yozgan bo‘lsa kerak, qandaydir insholar, turli yozishmalar edi. Bularning hujjat emasliги va hakamlar boplab aldagani aniq edi. N. buni tushunib, birdan butun zalni boshiga ko‘tarib kulib yubordi. Zaldan chiqib ketayotgan tomoshabinlarning oxirgilari unga hayron bo‘lib qarashdi, keyin sudni ko‘tarolmay aqldan ozdi degan xulosaga kelishdi, chog‘i, boshlarini hamdardona chayqab qo‘yishdi. N.esa jildlarga solingan qog‘ozlarni osmonga sohib, tovushining boricha baqirib, o‘ziga zo‘r tomosha ko‘rsatishganidan huzur qilib kulardi.

Adib romaniga xos xususiyatlardan biri ruhiy tahlil teranliги bilan izohlanadi. Muallif badiiy talqin zamirida inson to‘g‘risida xayolot – hayotda mujassam og‘riq nuqtalar, bezovta tuyg‘ularni qarama-qarshiliklar silsilasida aks ettiradi. Odamzod tabiatini ro‘yirost tasvirlash yozuvchi estetik tamoyillarini belgilaydi. SHu bois, uning achchiq haqiqatlari kitobxonga malol kelmaydi, san’atkor adabiy mahorati – jamiyat va hayot haqqoniyliги nuqtalarini aniq ilg‘ay olishida, qahramon ma’naviy olamini to‘g‘ri tabdil etishida, shaxs manfaat va qiziqishlarini yagona estetik maqsadga yo‘naltirishida, insoniyat mas’uliyati, ma’naviy va ma’rifiy sajiyani shakllantirish iqtidorida to‘liqonli namoyon bo‘ladi.

N.Eshonqul jonli mushohada asnosida ikki xarakterli talqinni teng rivojlantiradi. Aniqrog‘i, qahramonlar qiyofasi falsafiy va badiiy g‘oya mushtarakliğini detallashtiradi. Romannavis ichki muloqot tizimi orqali badiiy tafakkur yangi shamoyiliga o‘tganligini sezdirmaydi. Mazkur holat esa dunyoni anglash va anglatish jarayoni o‘zgacha miqyosga ko‘tarilganligidan dalolat beradi.

O‘z navbatida, olamni idrok etish shakli favqulodda badiiy qadriyatlar shakllanishiga turtki beradi. Unda tajriba va an‘ana ziddiyati, zamonaviylik va integratsiya nisbati, muammo yechimi organik yaxlitligi, ramz va falsafiy umumlashma davomiyligi etakchi adabiy xususiyatga evriladi. Ijodiy tabdil asar markazida inson murakkab turmush tarzi butun qirralarini umumlashtirishga imkoniyat hozirlaydi. Adib kundalik hayot qadar mavhumlashtirilgan odamzod ma‘naviy borlig‘iga tavsif berarkan, uning madaniy sajiyasi davr, tarix va taqdirga bo‘ysunishini yorqin bo‘yoqlarda izohlaydi. Qahramonning hatto ong-tuyg‘usi ham ozod emas. Obyektiv sajiya va subyektiv hissiyotning o‘ziga xos dinamizmi zamon falsafiy mantig‘i badiiy dalolatnomasining yaxlitligi, betakrorligi va originalligini ta‘minlaydi. Yozuvchi ijtimoiy-individual tafakkur miqyoslarini kengaytirish vositasida axloqiy va siyosiy dasturni takomillashtirishga intiladi. Ruhiy kechinma, inson mohiyati va taqdiri haqida adoqsiz o‘ylar, davr falsafasini estetik baholash tizgini nutqiy ong intizomiga bo‘ysunadi. Yangi g‘oyaviy va badiiy mohiyat muvozanati asar mag‘zini tashkil etadi. Mazkur nutqda muloqot shakli xoslanganlik darajasi epik voqelik mantiqiy taraqqiyotiga sharoit yaratadi. Aynan ong, hayot oqimi va badiiy talqin orasida mujassam to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa janriy cheklashlarga olib kelsa-da, tahlil mushtarakligi adib olam, odam va muhit ziddiyatlari falsafiy teranligini tahlillashga xalaqit bermaydi:

N. baribir tergovchining shaxsiy kotibi o‘zini chaqirmasligiga amin bo‘lgach, uni o‘zi izlab topishga ahd qildi. Tog‘ Muhammadning oldiga kelmagach, Muhammadning o‘zi tog‘ oldiga borgan edi. Biroq u izlab borgan joyda hech qanday muassasa yo‘q. Qanchalik izlamasin bu binolarning qay biri tergovchi muassasasi ekanini aniqlay olmadi; binolar bir xil, eski, zinalari nimqorong‘i, bo‘m-bo‘sh, qo‘rqinchli sukunat og‘ushida yotardi. N. ko‘chani ikki marta kezib chiqdi. O‘nlab binolarga kirib chiqdi va faqat bir xil javob eshitdi: bunaqa muassasa borligini bilmas ekanmiz, deyishdi. N. batamom tushkunlikka tushay deb turganda hozirgina kirib chiqqan binoning yuqori qavatida “Tungi so‘rov” degan

katta lavhaga ko‘zi tushdi. N. binoga qaytib kirib, uzun va qorong‘i zinalardan yuqoriga ko‘tarila boshladi¹.

Matn xarakteriga daxldor lavha tasvirni quyuqlashtirish barobarida qahramon qalbida kechayotgan ruhiy holatni ham gavdalantiradi. N. sarson-sargardon kunlari boshlanishi uning ko‘rgiliklaridan biri. Adib hayotiy detallashtirish vositasida nozik falsafiy-ijtimoiy umumlashmalar hosil qiladi. Unda ifoda mustaqilligi ruhiyat tasvirini birlamchi pog‘onaga ko‘taradi. Tipik vaziyat va sharoit taqozosi qahramon sajiyasini to‘ldiruvchi komponentlar, unda xarakter faollik darajasi bosqichma-bosqich kengaya borishi kuzatiladi. Ijtimoiy zalvorga ega g‘oyaviy tizim hodisot mantiqiy uzviyligini ta‘minlashga zamin hozirlaydi. Aynan eng og‘ir damlarda ham inson umid va ilinj bilan yashashga sodiq qoladi. Undagi o‘jar tabiat va murakkab fe‘l-atvor odamiylik bobida tayanch markaz, turfa nohaqlik hamda adolatsizliklarni ko‘rganda qahramon qalbida murosasiz munosabat paydo bo‘ladi. Xarakter tezkor shakllanishi hamda taraqqiyoti dastlabki pog‘onasi kuchli ruhiy kolliziyalarni keltirib chiqaradi. Mazkur jihat, birinchi navbatda, ilk haët zarbasi oldida inson ojizligini asoslaydi. Biroq qahramon tezda o‘zini qo‘lga oladi. Bunga ketma-ket kuzatilaëtgan ziddiyatlar asosiy omil bo‘ladi. Adib qahramonni tarqoq tasvirda umumlashtirishga intiladi va yorqin chizgilar orqali keskin kinoyaviy munosabatni oshiradi:

U birinchi marta bir idorada shuncha odam ishlashini va shuncha odam ish yuzasidan chaqirilishini ko‘rishi edi. Uzun yo‘lakda odamlar navbat kutib turishar, goh u eshikdan, goh bu eshikdan xodimlar chiqib, boshqa xonaga shoshib kirib ketishar, yo‘lak uzun bo‘lganligi sababli xonalar ham shunchalik ko‘p edi. Bu erda chollar, kampirlar, yoshgina o‘smirlar va juda bashang kiyingan, savlatli odamlar ham bor edi. Gohida xonalardan biri ochilib ichkaridan “navbatdagi” degan ovoz kelar, xona eshigi oldida turgan cho‘chib tushar va atrofga najot kutgandek bir-bir tikilib, qaltirayotgan barmoqlarini boshqalarga ko‘rsatmaslikka urinsa ham, ammo eshik ochayotganda titroq bosgan qo‘lini bir zum havoda silkitib turgancha xonaga kirib ketar, ichkaridan baqirish-chaqirish, yig‘i-faryod ovozlari kelib turgani uchun

¹ Ko‘rsatilgan adabiyot, -B. 71.

so‘roqqa chaqirilganlar deyarli gaplashishmas, dahlizni qomatga keltirgan g‘ala-g‘ovur ichkaridagi xonalardan chiqib, butun yo‘lakni to‘ldirayotgan edi¹.

Umuman, har bir adabiy talqin aslida yuksak darajada qayta ijodiy sayqal berilgan hayotiy material tanlovi sanaladi. Unda real voqelik mavhumligi jonli mushohada obyektini tavsiflaydi. Muallif ijodiy niyati bilan to‘yintirilgan pozitiv nuqtai nazar, eng avvalo, xususiyatda aniq mohiyat kasb etadi va mantiqiy aloqada umumiy tasvir tiniqligiga erishadi. SHu tariqa jamiyat quvvat hofizasi hamda davr ruhiyatini yaxlit tasavvurda ifodalash iqtidoriga daxldor badiiy tabdil tabiati muntazam tarzda mukammalashib boradi. Bu bejiz emas, albatta! Negaki, plastik tasvir va dinamik o‘shish-o‘zgarishlarga moyil tizim mudomi o‘z mohiyatini yangilab turishga intiladi. Nisbiy tugal g‘oyaviy asos ijod ruhiyatidan muallif dunyoqarashiga o‘tadi, estetik ideal hayot haqiqati va badiiy tasvirni muayyan nuqtaga yig‘adi. O‘z navbatida, asar ruhiyati tagmatni uzviyligi muallif-men-qahramon tafovutlarini birlashtiradi. Aynan adabiy talqinda tajassum topgan psixologik tasvir muhitni baholaydi.

1.2. O‘zlikni anglash ifodasida ijodiy individuallik

Nazar Eshonqulning «Go‘ro‘g‘li» romanida ijtimoiy-siyosiy evrilishlar inson turmush tarziga, shu jumladan, millat psixologiyasiga ta‘sirini aks ettiradi. Yangicha aspektda yoritilgan asarda katta axloqiy-falsafiy muammo gumanistik mohiyati qabarib ko‘rinadi. Ayniqsa, xarakter mantig‘i, qahramon ruhiyatini yoritish vositasida yozuvchi teran ijtimoiy-badiiy umumlashmalar yaratadi. Mazkur xususiyatlar – ichki nutq, xatti-harakat, badiiy chizgilar, tipik vaziyat va hayotiy tafsilotlar birligi tarzida namoyon bo‘ladi. Asosiy qahramon – N. Uning dunyoqarashi ruhiyat zarbalari tufayli izdan chiqadi. Personaj iroda yo‘nalishi zamon ruhiyati ta‘sirida boshqa o‘lchamga o‘tadi. Aniqrog‘i, obraz muhit qurboni va jamiyat zug‘umi uni faollikka yo‘naltiradi. Biroq joriy faollik qahramon o‘zligini anglashga moyillik darajasida emas. Agar uni bir tomondan, hayotiy ehtiyoj harakatga keltirsa, ikkinchi tomondan, qo‘rquv talvasaga soladi. SHu o‘rinda ta‘kidlash joiz, muallif ichki parokandalik hissi jamiyatdan

¹ Ko‘rsatilgan adabiyot, -B. 71.

boshlanganligini nozik iqtidor bilan ilg'aydi hamda tasvir o'q ildizlarini to'g'ri yo'naltiradi.

Adib fikr yo'sinida namoyon hissiy tovlanishlar tizimi tasvirda xolislik, xarakteraro mantiqiy izchillikka yo'l ochadi. Yozuvchi davr, muhit va inson uchligini falsafada markazlashtiradi. Qahramon tabdilidagi keskinlik talqin va tahlil tezkor o'rin almashinuvlarini ta'minlaydi. Asarda an'ana hamda o'ziga xoslik o'zaro qorishib ketadi, garchand, badiiy axborotda ijtimoiy mazmundorlik, publitsistik talqinga moyillik kuzatilsa-da, zamon evrilishlari inson taqdir yo'liga ta'sirini falsafiy talqinda chuqurlashtirishga intilish asar tasvir psixologiyasini tayin etadi. Yozuvchi hayotiy ziddiyatlar falsafiy teranligini umumlashtirishga intilarkan, ijtimoiy-ruhiy munosabatlar mutanosibligi inqirozi inson faoliyati hamda davr talablaridan ibtidolanishiga e'tiborni qaratadi:

SHu payt uning elkasidan kimdir turti. N. hansirash ovozi eshitib, orqasiga o'girildi. Bu idora qorovuli edi. U uzoq masofadan chopib kelganday, hansirar, yuzlarini kir ro'molchasi bilan artardi.

– Yaxshiyam hali kirmabsiz, – dedi u hansiragancha, – eshitib, shuncha qavatga yugurib chiqdim.

– Menda zarur ishingiz bormi? – so'radi N.

– Bor, – dedi qorovul. – Butun umidim sizdan. Rahbar sizni qabul qilsa, mening masalamni ham bir eslati¹.

Kichik muloqot qatida asrlar mobaynida insoniyat shuurini band etgan o'z ifodasini topgan. Umid, ilinj, istak va manfaat hissi aslida odamzod turmush tarzini belgilaydi. «Qo'rquv talvasasi» ana shu hayotiy ehtiyojdan o'sib chiqadi. Buni angelayozgan qahramon davr va muhit iztiroblari oldida ojiz... Zero, zamon siyrati turfa qirralari, uning shiddatli oqimini to'xtatish inson imkoniyatidan tashqari hodisa. Personaj ichki dunyosi murakkabligi va ziddiyati tafsilot tarqoqligini to'g'ri markaziy chiziqqa yo'naltiradi. Maishiy detallar ijtimoiy-badiiy umumlashmaga yo'g'rilgan ifodasi turg'unlik davri kishisi xarakterini uzluksiz jilvalantiradi. Romanda xarakter psixologiyasi ikki yo'nalishi – ichki kechinmalar

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 66.

hamda tashqi faoliyat tasviri qorishib ketadi. Aslida asarda obraz fikrlamaydi, balki tahlil predmetiga aylanadi. Asosiy jihat, shaxsiy xislat ijtimoiy hodisotga yaqinlashadi, undan o'sib chiqadigan ma'no borliq umumiy okimiga singadi. Zotan, ruhiy kechinma turli ta'sirlar vositasida tiklanadi. Ana shunday jihatlari bilan «Go'ro'g'li» romani XX asr o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Tuyg'u va ong orasidagi ichki mantiqiy bog'lam taassurot hajmini ijtimoiy falsafaga tayangan adabiy talqin bilan tenglashtiradi.

«Adabiy asarning mazmunidagi salmoqdorlik, asarning o'z zamonasi uchun muhim bo'lgan g'oyalar bilan sug'orilganligi yozuvchining xalq hayoti bilan aloqasiga, xalq hayotida bo'layotgan muhim hodisalarni o'z diqqat markazida tutishiga va tasvirlab bera olishiga bog'liqdir. Haqiqiy yozuvchi o'z ijodida xalq uchun muhim bo'lgan masalalarni chetlab o'tolmaydi. Yozuvchi talantining masshtabi (miqyosi) o'z zamonasi uchun, butun insoniyat uchun muhim hayotiy masalalarni ehtiros va badiiy mahorat bilan o'rta qo'ya bilishida ko'rinadi»¹. Binobarin, ijtimoiy aloqa haëtiy ziddiyatlarni hosil qiladigan muhim omil. Unda xarakter ruhiyati hamda jamiyat ehtiëji, shakllangan an'ana hamda barqaror mezonlar, tahlil teranligi hamda tasvir qabariqligi o'zaro birikib ketadi. Inson hayoti aslida voqelik teranligi hosil qiladigan ruhiy kechinma, tasavvur va taassurotlar yig'indisidan iborat. Hodisot uzviyligini bir-biriga mantiqan payvandlash, muayyan qismlarni etakchi g'oyaviy markazga ulash, ijodiy niyat muntazam o'zgarib turishiga hamohang ichki tugallikni ta'minlash ijodkor adabiy mahoratini taqozo etadi. N.Eshonqul ijtimoiy-falsafiy muhokamalarida an'anaviy rivoya har bir hayotiy tafsilot mohiyatini ochib berishga moyil, ifodada bir-birini to'ldiruvchi mustaqil ijodiy chizgilar ustuvorligi, harakat va holat bosqichlari uzviyligini jipslashtiradigan tahlil ma'rifati muhim estetik vositaga aylanadi. So'z yoki tasavvur katta badiiy umumlashmani bera olish layoqati muallif ijodiy miqyoslari kengligini tasdiqlaydi. SHu nuqtai nazardan, «adabiy asarning mazmunidagi salmoqdorlik» hayotiy qamrov darajasi teranligidan oziqlanadi. Hissiy tafakkur hamda estetik qamrov uyg'unligi ruhiy tavsif uslubiy-vazifaviy

¹ Adabiyot nazariyasi. I – jild. –T.: «Fan», 1978, 71-bet.

xususiyatlarini rasman sharhlaydi. Muallif aksar o‘rinlarda shaxsiy mayl va ijtimoiy a‘molni bir-biriga qorishtirib yuboradi. Qahramon turmush tarzini qayta tiklash hamda ongda yaxlitlashtirishda san’atkor ikki qatlam – ichki olam va tashqi muhit mutanosibligini tadqiq sahniga chiqaradi. Inson – sir-sinoatlarga daxldor sub’ektiv omil, ijtimoiy voqelik hamda haët manzaralari uning psixologik mohiyatini imtihondan o‘tkazadi. O‘z navbatida, adabiy talqin shaxs bevosita atrof-muhitdan olgan taassurotlarini uyushtirishga urinadi hamda holat-harakat uzluksizligini estetik baholashga yo‘naltiradi:

Bu voqea juma kuni sodir bo‘lgandi. Agar N.ning hayoti keyinchalik boshqa bir o‘zanga tushib ketmaganida, ehtimol, u juma kuni yuz bergan bu chalkashlikni butunlay unutib yuborgan bo‘lardi. U keyinchalik bu chalkashlik haqida ko‘p marta esladi va aynan o‘sha adashib qilingan qo‘ng‘iroq mening hayotimni butunlay o‘zgartirib yubordi, mening hayotim aynan o‘sha kundan so‘ng boshqa oqimga qarab burilib ketdi, tabiiyki, rahbarning qabuliga adashib chaqirishgani oxir-oqibat oydinlashgani kabi bir kuni hammasi o‘z o‘rniga tushadi deb o‘zini ovutib yurdi¹.

Lavhada muallif vaqt hamda tafsilotaro munosabat vositasida tuyg‘uni ongga payvandlaydi. Bir tomondan, materiyaga ko‘chgan poetik g‘oya shartliligi, ikkinchi tomondan, tasvir predmeti daxlsizligi, uchinchi tomondan, falsafa va mantiq nisbiy mustaqilligi, to‘rtinchi tomondan, axloqiy-ijtimoiy umumlashma joriyligi asosiy g‘oya hamda to‘ldiruvchi mohiyatni bir-biriga ulaydi. Zero, ifoda badiiy shakl va dunëqarash orasida barqarorlashadigan ma‘no tugalligini asosiy o‘ringa ko‘taradi. Aniqrog‘i, tahlil yo‘sinida ijodiy yaxlitlik muhokama zalvori yanada og‘irlashuviga zamin hozirlaydi.

Adib idrokida davr yetakchi ma‘naviy-axloqiy mezonlarini belgilashga moyillik seziladi. Nuqtai nazar muhokamasida jamiyat muhim muammolari tahlili hayotiy teranlik kasb etadi. Inson ruhiyatini shaxsiy-ijtimoiy yaxlitlikda tasvirlash badiiy izlanish mag‘zi. Unda ma‘no-mohiyat odamzod manfaat va intilishlarini birlashtiradi. Unda badiiy ifoda ma‘rifat va madaniyatni jipslashtiradi. Unda

¹ Ko‘rsatilgan adabiyot, -B. 55.

tuyg‘u-ong nisbati istak va imkoniyatni butunlashtiradi. Unda talqin tabiati mushohada tiniqligi va tafakkur aniqligini uyushtiradi. Aslida qahramon mukammal xarakterini yaratish har bir san‘atkor adabiy mahorati kafolati sanaladi. SHu ma’noda, adabiy talqinda mujassam muallif falsafiy konsepsiyasi qahramon xarakterini oydinlashtiradi, asosiy obraz tadriji tasavvur chiziqlarini to‘laqonli markazlashtiradi, tasvir tamoyillari ifodasi esa hayotiy tafsilotlar ruhiy-ma’naviy asoslarini badiiy umumlashtirishga xizmat qiladi:

U hozir avtobusdan tushmay xayol surgancha butun shaharni aylanib chiqqisi keldi. SHaharda oddiy qish kuni hukmron edi. Kecha yoqqan qor hamma yoqni oqqa bo‘yagan; qorga qoplanganda shahar allanechuk go‘zal bo‘lib ketishini endi sezayotganday qish manzarasiga qarab to‘ymasdi. Binolar oldida qor uyulib yotardi – yo‘lovchilar tiyg‘onib ketmaslik uchun yo‘laklarda ehtiyot bo‘lib yurib borishardi. Qish shaharga favqulodda osoyishtalik olib kirgan, do‘konlar oldida navbatda turgan odamlar ham boshqa fasllarga qaraganda sokin va yuvvosh edilar – ularning ko‘zlariga qishning og‘ir kayfiyati cho‘kib qolgandi. Ma’yuslik butun shaharni xuddi qor misoli qoplab olganday edi. N. avtobusdan tushib, bekat qarshisidagi binoga qarab yo‘l olarkan, oldidan qarib, munkillab qolgan chol va kampir bir-biriga suyanib o‘tib ketdi. Ular ko‘rinishdan yo juhud yo armani edi; yuzlari shu darajada horg‘in ediki, xuddi hayotdan butkul bezib bo‘lishganday zo‘rg‘a yurib borishardi. Aftidan, yurish ham ularning joniga tekkan, yurgan sayin umrning so‘nggi qoyasi tomon tobora yaqinroq boshlab borayotgan qadamlarini bir daqiqa bo‘lsa ham shu dunyoda ushlab qolmoqchidek bazo‘r bosardilar¹.

Ijodda realistik tamoyil ustuvorligi shundaki, adib muayyan hodisani poetik idrok etish bilan cheklanib qolmaydi, balki unda ijodiy yondoshuv hamda unda estetik baholash mezonlarini birlashtiradi. Joriy munosabat tasvir shiddati uyg‘unligini ta’minlash barobarida xarakter iroda yo‘sini butunligini ham dalolatlaydi. Voqelik keskinligi yoxud ifoda to‘qnashuvi badiiy maqsadni aniqlashtiradigan omil, unda muhokama tabiatini anglash tadqiq sahniga chiqadi. Tuyg‘u va ongda kechadigan jarayon aslida, bir-birini inkor qiluvchi qutblar, teran

¹ Ko‘rsatilgan adabiyot, -B. 56.

falsafagina bu ikki nuqtani jipslashtiradi. Zero, romaniy tafakkur tizimi yaxlitlik asosiga quriladi, adabiy tabdil ziddiyatiyu uyg'unligi uning etakchi badiiy xususiyatiga evriladi. Zotan, janr taqozosi va tahlil madaniyati uyg'unlashuvi uning asosiy ko'rsatkichi.

Tasvir va ifoda qatlamlari tig'iz joylashuvi, davr va shaxs ziddiyati falsafiy teranligini ta'minlashga moyillik Nazar Eshonqul tahlilida quyidagi badiiy xususiyatlar jamuljamiga olib keladi: a) badiiy idrok hamda publitsistik talqin ziddiyatini uyg'unlashtirish; b) ham voqelik solnomasini, ham qahramon ruhiyatini yaxlitlikda tahlilga yo'naltirish; v) obyektivlashtirilmagan tasvir quyuqligi; g) rivoj epik mohiyati o'z yetakchi mavqeini yo'qotishi. Tabiiyki, mavjud holat badiiy vazifadoshlikka ham ta'sir o'tkazadi. Buning natijasi o'laroq, ziddiyat hamda tafsilot o'zaro aloqalantirilgan xarakteri muhokama mag'zini tayin etadi. «Go'ro'g'li» romanida inson (subyektiv ibtido) va voqelik (obyektiv intiho) plastik tasavvur yaxlitligiga evriladi. **Kuzatish**, **sharhlash** hamda **baholasharo** uyg'unlik adib ijodiy individualligini belgilaydigan asosiy omildir.

Badiiy adabiyotda shunday adabiy qahramonlar borki, ular taqdirini izohlash, yozuvchining matn mag'ziga singdirilgan ma'nolarini tahayyulda mushohada etmoqni talab etadi. SHu orqali qalamkash poetik olamining konseptual asoslarini belgilash yoxud tafakkur qamrovini yorqinroq anglash mumkin bo'ladi. Zero adabiy qahramonlar ruhiy-psixologik olami hamisha ham real olam hodisalariga bog'lab tushunilmaydi, ko'ngilda, fikr-qarashlarda ham anglanadi. CHunki ijodkorning mudom harakatdagi tafakkurida kurtak ochan badiiy fikrning o'ziga xos halqasini tashkil qiluvchi muayyan obrazda estetik nigoh, lirik harorat mujassam. SHu bois ham unga real hayot bilan aynanlik maqomini berish mumkin emas. Illo badiiy haqiqat hayot haqiqati bo'lmay, ong va tuyg'u – ruhoniyl nazar ifodasining uyg'unligidan hosil bo'luvchi go'zallik sifatida matnga tayanib, ijodkor mikroolamiga kechinmadoshlik orqali poetik idrok etiladi¹. Zero, roviy obrazi maqomiga erishadigan qahramonlar sajiyasi parda orqasida qoladi. Negaki, ham xolis, ham pozitiv kuzatuvchi jonli mushohadalarda nutqiy faoliyat shaxsiy

¹ Yoqubov I. Badiiy-estetik so'z sehri. –T.: «TDPU». 2011. –B. 252.

munosabatga evriladi. SHu boisdan ham, ko'rsatma hamda aynanlik bir-biriga muvofiq kelishi barobarida o'zaro ziddiyat hosil qilishi ham mumkin. Vaholanki, qahramon pozitsiyasi dunyoqarash, did va saviya birikuvidan o'sib chiqadi. G'oyaviy chiziqlar bir-biriga tutashuvini ta'minlaydigan roviy nutqi aslida muallif dunyoqarashiga raqobat hosil qiladi. Kamdan-kam hollardagina mikroolamlararo bog'lanish yuzaga kelishi mumkin. Badiiy fikr mantiqiy taraqqiyoti esa hayotiy detal estetik qiymati bilan belgilanadi. Yozuvchi bevosita va bilvosita matn g'oyaviy butunligiga daxl qilishi tafakkur qamrovini kengaytiradi. Vaholanki, poetik olam konseptual sajiyasini aniqlash ijtimoiy-ruhiy omillar halqasiga borib taqaladi. Ong hamda tuyg'u tig'izligi mohiyatan izchillikni tayin etadi.

Roman janrini «umumlashtiruvchi bitta jihat bor: ularda yaratilgan badiiy voqelik – u xoh haqiqatga monanddek tuyulsin va xoh mutlaqo xayoliy, mayli goh ertakka, gohi mifga tortib ketsinu goh hujjatli asosga egadek ko'rinsin – bulardan qat'iy nazar, mualliflari uchun jamiyatning joriy holatini badiiy idrok etish va shu asosda olamu odam mavjudligining mohiyati haqidagi o'z qarashlarini tizim holida, yaxlit badiiy falsafa tarzida ifodalash uchun bir vositadir. Ayni shu narsa ularni an'anaviy romanning vorisiga, uning bugungi kundagi ko'rinishiga aylantiradi. Sirasini aytganda, an'anaviy roman uchun muhim sanalgan «qahramon va muhit konflikti», «qahramonning ma'naviy-ruhiy izlanishlari» kabi tushunchalar «yangi roman»da izsiz yo'qolgani ham yo'q, ular ijodkor subyekti tomon siljidi (albatta, siljish darajasi turlicha), xolos»¹. Negaki, yangicha adabiy tafakkurda jamiyataro shaxs ziddiyati emas, balki ong va tuyg'u tovlanishlari tahlillanadi. Vaholanki, realistik tasvir obyektga daxldorlik kasb etish barobarida munosabatli nutq pozitivligini ham barqarorlashtiradi. Prof.D.Quronov badiiy voqelikning mazmun-mohiyati vazifadoshlikdan o'sib chiqishi, alal-oqibatda yaxlit badiiy falsafaga evrilishiga mantiqiy urg'u beradi. Hayot haqiqati va badiiy to'qima nisbati aynan, ishora hamda ifoda tig'izligiga tutashadi. Unda tasvir haqiqati hamda ifoda xususiyati bir-birini to'ldiruvchi tahlil predmetiga aylanadi. Ijodkor subyekti tomon siljigan «yangi roman» nazariyasi realistik tasavvurni

¹ Quronov D. Roman haqida ayrim mulohazalar// SHarq yulduzi. №5. 2011. –B. 116.

tubdan yangilaydi. Ijtimoiy munosabatlarning hozirgi bosqichini idrok etishdan, majoziy yo'sinda davr ruhiyatiga munosabat bildirishgacha masofa olamu odam mavjudligi psixoanalitik mohiyatini yig'ishga xizmat qiladi. Istiloh muayyan idrokka bo'ysundirilgan muloqot shakllarini jilvalantiradi. Aynan, tasvir, talqin va tahlil tig'izlashuvi estetik munosabatlar hosil qilishi ijod malakasi takomilini ko'rsatadi:

U Havoning o'zini ichkariga kiritmaslikka harakat qilayotganini sezdi. U hozir gaplashib olish zarurligini bilar va ko'p mulohaza, ikkilanish hamda ichki qiynoqlardan so'ng shu xulosaga kelgandi. U barcha nozikta'b odamlar kabi ko'p ikkilanar, o'zini azob-uqubatli mulohazalarga g'arq qilar, tunlari faqat shu narsalar haqida o'ylab, uyg'onib ketar, biroq oxir- oqibatda shunday hukmga kelardiki, xuddi o'n yetti yashar oshiq mahubasining savdoyisiga aylanganidek, u ham shu hukm savdoyisi bo'lib qolardi. Ishxonada uning shu holati, fe'li ko'pchilikka tushunarsiz va betayin bo'lib tuyular, biroq uning o'zi baodob bo'lgani uchun unchalik e'tibor berishmasdi¹.

Muallif dunyoqarashi axloqiy tamoyili Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» romani o'ziga xosligini belgilaydi. To'g'ri, asarda qahramon shaxsiyati mukammal tarzda namoyon bo'lmaydi. Vaholanki, ruhoniylar kechinmalarni teranlashtirmaydigan ijodkor inson muhitga to'qnashuvini dalolatlashga intiladi, umume'tirofdagi ma'naviy mezonlar esa obraz tadrijiga kuchsiz ta'sir o'tkazadi. Kinoya, kesatiq, piching yanglig' badiiy tasvir vositalari voqelikni estetik idrokda baholashga sharoit tug'diradi. Yozuvchi nuqtai nazari xos nutqdan qahramon hayotiy ifodasiga ko'chishi ong tig'izligiga olib keladi. Tasvir yo'nalishidagi munosabatlar xolis rivoya mustaqilligiga chek qo'yadi. Aynan, joriy holat romanda ichki nutq tartibini namoyish qilishga zamin hozirlaydi. Unda tahlil va tasvir sintezi voqelik o'lchamini hosil qiladi. Badiiy munosabatlar silsilasida bo'yoqdorlik (simpatiya, antipatiya) hamda baholash o'lchami (estetik idrok) tugalligini ta'minlaydi. O'z navbatida, ruhiy munosabat mantiqiy joylashuvi muhokama uyushganlik darajasini sifatlaydi. Psixologik tasdiq yoki inkor sifat

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 61.

yangilanishiga olib keladi. Bunda ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasi, estetik tadrij va tahlil mantig'i ifoda madaniyatini jipslashtiradi. Inson ibtidosi va intihosi tahlili quyuvlashuvini quyidagi parchada ko'rishimiz mumkin:

– Bir kecha uyg'onib ketdim, – dedi N. stolning siniq oyog'iga tikilgancha. – CHiroqni yoqib xonaga ko'z tikdim. Hamma narsa tartib bilan joylashgan, hamma narsa etarli edi. Umuman, bir odam baxtli yashashi mumkin bo'lgan hamma narsa bor edi. Biroq shunda nimadir etishmayotganini anglab qoldim. Bilasanmi, nima? Men qandaydir o'likka o'xshab yasharkanman. O'lik kabi kechamdan kunimning, bugunimdan ertamning farqi yo'q ekan. O'liklarda shunday bo'ladi: mening esa tirilgim keldi va oldingga meni tiriltir, azoblaringni, uqubatlaringni menga ham yuqtir deb keldim. Ha, shunday, meni tiriltir, mening hayotimga mazmun bag'ishla, iztirob bag'ishla! Qalbimni tita-tita seni topdim. Ha, men senga kerak edim. Menga faqat sengina muhtoj eding. Oldin buni tan olmasdim. Men ham tanishganimdan beri hammaga o'xshab o'shalardan deb o'ylardim. Endi bilsam sen shu zindonga tushib qolgansan. Seni zindondan qutqarish uchun kimdir qurbon bo'lishi kerak. O'sha qurbon – menman. Adashgan, yo'lini yo'qotgan sen emas, men ekanligimni sezdim va meni tiriltir, menga hayot bag'ishla, deb oldingga keldim¹.

Odatda, inson xotirasida voqelik tasavvuri yaxlit tarzda namoyon bo'lmaydi. Negaki, ruhiy holat faqat xarakterli hodisalarni tavsiflaydi. SHu bois, eng yorqin taassurotlar hajmi tasvir yaxlitligiga bo'ysunmaydi. Uzun-yuluqlik, tugallanmaganlik va kemptiklik uning asosiy sifat belgisi. Ijodiy mantiq intizomini buzadigan tahlil usuli ruhiy munosabatlarni ham kuchaytiradi, ham oydinlashtiradi. Muallif aralashuvi hatto daxlsiz jarayonni ham boshqarish imkoniyatini beradi. Qo'yilayotgan g'oyaviy-badiiy maqsad aniqligi va yozuvchi ijodiy pozitsiyasi shunga zamin hozirlaydi.

N. xarakterida kechayotgan kuchli ruhiy hayajon pozitiv xarakterga ega. Unda muallif va qahramon nuqtai nazari bir-birini to'ldiradi. Aniqllovchi mohiyat tagida odamzod qismatiga kuyunchaklik va hamdardlik hissi yotadi. Ezgulik va razolat,

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 57.

diyonat va tubanlik chorrahasida kesishadigan ziddiyatlar zalvori inson qalbini tilkalaydi. Xotiralar markazida ruhiy kechinma tursa-da, asosiy urg'u olam norasoligi, jamiyatlardagi adolatsizliklarga qaratiladi. Tezkor ruhiy drama ifodasi inson-tabiati-jamiyat muvozanati tahlilini keltirib chiqaradi. Ayon bo'ladiki, xotira adabiy tushunchasida estetik mezon – baholash me'yori ustuvorlik kasb etadi. Negaki, odamzod tafakkuri ma'naviy daxlsizlik huquqi barobarida xoslaganlik darajasini ham kafolatlaydi. SHu ma'noda, ruhiy alohidalik belgilari individual munosabatning ijtimoiy-falsafiy qirralarini etakchi o'ringa chikaradi.

Adabiyotning, umuman, barcha san'at turlarining tag zamirida yotgan haqiqat asli bilvosita badiiy voqelik (keng ma'noda) yaratishdir. Har qanday realistik badiiy asar voqelikning o'zi emas, balki muallif ongi mahsulidir... O'z-o'zidan endi u ham personaj, ham muallif ongi natijasidir¹ – yozadi tadqiqotchi T.Jo'raev. Ayonki, muayyan janrda benihoya keng badiiy aloqalar (muallif ijodiy niyati, qahramon adabiy tadriji, ijtimoiy-qadriyaviy mezonlar joriyligi) poetik g'oyada qayta tiklanadi. Aynan hayot haqiqati va adabiy voqelik o'zaro dialektik munosabatini ong miqyosi belgilaydi. Nutqdan ifodaga o'tish jarayoni aniq adabiy vaziyatni shakllantiradi. Borliqqa nisbatan alohida estetik munosabat qamrovida g'alati ziddiyat mavjud: bir tomondan, oddiylıkdan murakkablikka qadar harakatlanadigan tasavvur adabiy tur, janr hamda tasvir usuli umumiy qonuniyatlarini muvofiqlashtirib turadi, ikkinchi tomondan, badiiy ifoda ijodkor fitrati xoslanganlik darajasini tahlil ob'ektiga aylantiradi. Agar ijod jarayoni ichki va tashqi omıllarni omuxtalashtirishini hisobga olsak, talqin zalvori yanada teranlashadi. To'g'rirog'i, tovush-belgi-ohangdan yaxlit tafsilot hosil bo'ladi, tasvirda namoën nozik muqoyasa mushohadani shakllantiradi, undagi ma'no tanlovi g'oya xususiyatini dalolatlaydi, g'oyalar jamuljami ijodiy konsepsiya yaxlit manzarasini jilvalantiradi. Estetik tanlov va mantiqiy bog'lam intizomi adabiy tabdil tabiatini belgilaydi.

Estetik mohiyatni tushuncha va obraz ibtidosi tadrijiga yo'naltirish badiiy olam hamda badiiy mantiq butunligiga rahna soladi. Binobarin, hissiy idrok

¹ Jo'raev T. Ong oqimi modern. –Farg'ona: «Farg'ona», 2009. –B. 75.

jarayonida ma'no qatlamlari uyg'unlashuvi hosil bo'ladi. Mavjud holatda mazmun alohidaligi va mantiq muqobilligi bir-biridan uzoqlashadi»². Aslida badiiy munosabat ijtimoiy-ruhiy raqobatdan o'sib chiqsagina, poetik g'oya markazlashadi. Aniqrog'i, mundarija miqyosi qadriyat va vazifadoshlik yaxlitligi kafolati, kuzatish tezkorligi hamda tasvir jonliligi uni qisman to'ldiradigan tizimga aylanadi. Biroq ijod mantig'i real mohiyatni jiddiy o'zgartirishi yangi aloqa va kommunikatsiya maydonini tayin etadi. Unda inson ijtimoiy-falsafiy va hissiy-ruhiy tajribasi muayyanlashadi. Ifoda tig'izligi va analogik talqin ziddiyatida xoslangan mushohada nisbiyligi taraqqiyoti obyektiv daxlsizlikni dalolatlaydi.

² A.A.Potebnya. Estetika i poetika. –M.: Nauka, 1976. –S. 164.

II BOB. REALISTIK TASVIR VA FALSAFIY-PSIXOLOGIK TALQIN

2.1. Romanda inson qalbi va abstrakt tushunchalar badiiy talqini

Sujet (frans. - predmet, «asosga qo'yilgan narsa») badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlar xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Umuman, syujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo'lib, barcha turdagi badiiy asarlarda ham syujet mavjuddir. Faqat shunisi borki, har bir turda, janrda syujet o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi»¹, - deya yozadi prof. D.Quronov. Darhaqiqat, voqelik o'rtasidagi mantiqiy yaxlitlik (sabab-oqibat) matnni uyushtiradigan asosiy tushuncha hisoblanadi. Asar qahramonlari hamda sharoit taqozosi orasidagi bog'lam aynan rivoya izchilligidan oziqlanadi. Yaxlit tizimda kuzatiladigan munosabatlar ham uyg'unligi, ham ziddiyati atama tabiatini belgilaydi. G'oyaviy mazmun vositasida boshqariladigan fabula hayot haqiqati hamda badiiy to'qima o'zaro munosabati tugal voqealanish tartibini ifodalaydi:

N. mansab jihatdan uchinchi pog'onaga mansub edi va yaqin orada uni to'rtinchi pog'onaga o'tkazish mumkinligi haqida gap-so'zlar bo'lmoqda va shaxsan Rahbarning o'zi buyruqqa allaqachon imzo chekkan, gap faqat to'rtinchi pog'onadagi kekxa mudirning nafaqaga chiqishiga qarab qolgandi. N. qog'ozlarni titib o'tirib, birdan nega Havo bilan bo'lgan voqeani kundaligiga yozmagani esiga tushdi va tortmadan yashil jildli daftarni olib, oldiga qo'ydi va hamishagidek shoshmasdan, boshidan o'tganini bir-bir ko'z oldiga keltirib, chiroyli va katta harflarda yoza boshladi. Biroq u bir varaq yozmasdan eshikda uch kishining boshi ko'rindi: bular beshinchi pog'onadagi xodimlar bo'lib, ular deyarli bir xil tusda kiyinishgan, kamzullari Rahbarnikiga mos moviy rangda edi. Ularning yuzida ham faqat favqulodda holatlarda yuz beradigan tahlika va malol zuhur yetgandi².

Ta'kidlash joiz, har bir davr adabiy muhokamasi borliq va inson munosabatlari haqidagi tasavvurlarni yangilaydi, jamiyat taraqqiyoti darajasini uyushtiradi. Zero, badiiy tizim mohiyati, birinchi navbatda, ong va tuyg'u

¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: «Xalq merosi nashriyoti». 2004. –B. 74

² Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 58.

chorrahasida kesishadi. Negaki, odamzod tiynatiga yig'ilgan ijodkor munosabatida davr ruhiyati hamda jamiyat a'moli birlashadi. So'z san'ati tadriji hamda o'ziga xosligi hayotiy-maishiy ziddiyatlar falsafiy teranligini umumlashtirish yordamida voqe bo'ladi. Badiiy munosabatlar ruhiy mundarijasi uning mag'zi sanaladi. Zero, adabiy talqinda fikr teranligi, tasvir ravonligi hamda tasavvur aniqligi markazlashadi.

Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi va yangidan ta'sirli va jonli, tabiiy va go'zal, tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit syujetni yuzaga keltirishda ham sodir bo'ladi,¹ – yozadi prof. H.Umurov. Binobarin, tasvir va taassurot orasidagi bog'lam voqelik ikkilanganligiga yo'l ochadi. Mavjud holatda janr barqarorligi va syujet halqasi o'zaro uyg'unlashadi. Unda ijodiy tanlov, umumlashma va hayotiy muqoyasa tasvir ruhiyatini shakllantiradigan omilga aylanadi. Boshqacha aytganda, hayot haqiqati va badiiy to'qima bir-biriga tutash nuqtalari ham janr tadriji, ham poetik tarhga ta'sir o'tkazadi. Qahramon va voqelik tahlilida muallif konsepsiyasi tasvir obyektini tubdan yangilaydi. Hayotiy mantiq va badiiy mantiq orasidagi aloqa hamda tafovut ijodkor fitratida maromiga etadi.

Yangilanayotgan romaniy ifoda mohiyatida «inson – ijodkor tabiati, uning ruhiy imkoniyatlariyu ehtiyojlarining o'ziga xosligi bilan izohlanishi mumkin. Insonning hayot yo'lida ajib bir ziddiyat kuzatiladi: u kelajakka intilgani holda ortiga o'girilib yashaydi. Zero, inson faoliyati tajribasiz mumkin emas, tajriba esa har vaqt o'tmish bilan bog'liqdir. Sirasi, «hozir» tushunchasini hali anglab ulgurilmagan o'tmish sifatida qabul qilishsayu «bugun»ning tutqich bermasligi e'tiborga olinsa, inson hayotining mazmun-mohiyati o'tmish va kelajak qutblari orasidagina namoyon bo'lishi anglashiladi. Bu qutblar misoli magnitning qarama-qarshi qutblaridek: biri itarish, ikkinchisi tortish xususiyatiga egadir. Ijodkor shaxsning o'tmishiga munosabati o'zini anglash, anglanganida ham o'zini o'zgalar bilan, jamiyatu borliq bilan aloqadagi butunlikda anglash ehtiyoji bilan yuzaga

¹ Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. –T.: «Fan». 1983. –B.69.

keladi»¹. Anglashiladiki, odamzod hayoti solnomasi ehtiyoj hamda uning imkoniyatlarda qay darajada namoyon bo'lishiga bog'liq. Faoliyat yo'sini «kecha-bugun-ertaga» o'ramida muayyan salmoq kasb etadi. Ayni paytda, tabiat-jamiat-inson chambarchasligi vaqt o'lchamini kengaytiradi. Izchil davom etadigan tahlil ma'rifatini «jamiyatu borliq bilan aloqadagi butunlikda anglash ehtiyoji»dan esa badiiy idrok miqyosi hosil bo'ladi:

Uchalasi ham xonaga shoshib kirishdi va N.ning qarshisida bir safda tizilgancha tek qotishdi, so'ng bir-biriga ko'z tashlashdi. Eshikdan yana bir necha kishi qarab turar, aftidan, dahlizga butun idora yig'ilgan, u erdan shivir-shivir va polning tinimsiz g'ichirlashi eshitilardi.

– Hurmatli N. – dedi o'rtadagisi sheriklariga yana bir bor ko'z tashlab olgach, – siz kechagi gazetalarni o'qidingizmi?

– Ha, – dedi N. iloji boricha yumshoq va beparvo ohangda. – Qandaydir anglashilmovchilik yuz beribdi.

– Biroq u erda, – dedi o'ng tarafdagi xodim, – sizning poezd tagida qolganingiz haqida yozilgan.

N. uning qalin qoshlari pirpirab ketganini ko'rdi. N. o'z xizmat davrida bu xodimlar bilan biron marta ham yuzma-yuz gaplashmagan edi².

Inson xarakteri g'oyatda murakkab. Zotan u har bir aniq ruhiy holat va vaziyatlarda o'zgarib turadi. Adabiy qahramon faoliyati konkret shart-sharoit tufayli yuzaga kelgan fikr-kechinma bilan chambarchas bog'liqlikda anglashiladi. Demak, badiiy muhokama ham u yoxud bu hodisa tabiatiga xos favqulodda xarakter hayoti, xatti-harakatlari evrilishini ta'minotidan tashqarida kechmaydi. Anglashiladiki, bioijtimoiy mavjudot bo'lmish inson fe'l-atvorida kuzatiluvchi nochiziqlik real voqelik uning fikri va ko'ngliga uzluksiz hissiy ta'siri hosilasidir. Anglashiladiki, ichki olam sir-asrori ma'naviy jihatdan daxlsizligi tahlil haqiqatiga keng yo'l ochadi. Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» romanida syujet intizomi vaziyat va muhit manzaralarini uyushtiradi. Unda xarakter tabiati iroda yo'nalishi

¹ Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. –T.: «Sharq». 2004. –B.109-110.

² Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 61.

hamda ijtimoiy munosabat ta'sirida shakllanadi. Matnda qahramon ruhiy olamiga xos turfa xil qirralar bir-biriga o'tib turadi. Aslida, obraz tub mohiyati inson mukammalligini to'la dalillay olmaydi. Chunki unda yaxshi xislatlar yomon xulq-atvorga qorishib ketadi. Zotan, yuqorida ta'kidlanganiday, inson ruhiy olamida shakllangan amaliy boshqaruv tizimi uning tashqi faoliyatini yuzaga chiqaradi. Hatti-harakat, urf-odat, ong va tuyg'u miqyoslari ko'lamini aynan ijtimoiy faoliyat nazorat qiladi. Aynan inson faqat ruhiy holatdagina o'z mohiyatiga yaqinlashadi. SHu ma'noda, asar tadqiq markazida syujet an'anaviyligi qabarib ko'rinadi. Davr ijtimoiy axloqini badiiy jihatdan tasdiqlashga yo'naltirilgan adabiy talqinda ham shaxsiy hayot, ham ijtimoiy mohiyat kinoya ostiga olinadi. O'tkir piching, zaharxanda kesatiq, syujet yaxlitligini ta'minlash barobarida xarakter to'laqonligini ham asoslashga ko'maklashadi: ham munosabatli nutq, ham muhit ifodasini uyg'unlashtira olgan adib dramatismni birdaniga keskinlashtirmaydi, balki ifoda mustaqilligini bosqichma-bosqich detallashtirishga intiladi. Unda ruhiyat ziddiyatlarini tahlillash, inson va jamiyataro aloqa mantig'ini ko'rsatish ustuvorlashadi.

Syujet bilan konflikt orasida ikkiyoqlama aloqa kuzatiladi: bir tomondan, syujet konfliktlarni umumlashtirib namoyon qiladi, ikkinchi tomondan, konflikt syujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylanadi. Ko'rinadiki, syujet va konflikt badiiy asarda uyg'unlashadi, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Konflikt (lot – «to'qnashuv») deganda badiiy asar personajlarining o'zaro kurashlari, qahramonning o'z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar tushuniladi. Badiiy asar voqelikni aks ettirgani va uning markazida inson obrazi turgani uchun ham insonning real hayotida mavjud ziddiyatlar bari unda badiiy aksini topadi. Birinchidan, ziddiyatlararo uyg'unlik syujet takomilini belgilaydi, ikkinchidan, syujet va fabula zichligi konflikt salmog'iga tutashadi, uchinchidan, xarakter mantig'ida ham botiniy, ham zohiriy keskinlik markazlashuvi ustuvorlashadi, to'rtinchidan, voqealar tizimi halqalariaro yaxlitlik badiiy munosabatlar ziddiyatining ko'lamini uyushtiradi. Aslida, syujet qismlari vazifadoshligini ta'minlaydigan vositalar – kolliziya hamda intriga tasvir

yo'sinini boshqaradi. Joriy boshqaruv badiiy munosabatlar o'ziga xosligini ham oydinlashtiradi.

– Hozir gazetaga telefon qilmoqchiman. Ular kimnidir men bilan adashtirishibdi. Men agar poezd tagida qolganimda bu erda o'tirmagan bo'lardim.
– N. shunday deya oldidagi daftarni yopdi. Biroq birdan yuragiga noxush bir his o'rmalab kirdi: u o'ziga qarshi nimadir tayyorlanayotganini sezib qoldi.

– Biz ham shunga hayronmiz, – dedi o'rtadagisi. – Ko'mish marosimiga idora ancha chiqim qildi. Hozir guldasta ham olib kelishdi. Sizni so'nggi yo'lga kuzatish uchun butun idora xodimlari bir necha daqiqadan so'ng qabristonga borishi kerak. Avtobus va zarur bo'lgan barcha narsalar hozirlangan. Vazirlikka bu haqda xabar qilingan. Ko'rib turibsizki, ish jiddiy tus olgan¹.

Asarda syujet va konflikt munosabatlari aloqalantirilgan badiiy izchillikni hosil qiladi. Matn davr voqeligidan kesib olingan bosqich – turg'unlik davri hayotini qamrab oladi. Unda fabula miqyosi kengayishini tasvir, xarakter, voqelikaro qarama-qarshiliklar ta'min etadi. Tasvir ziddiyati (kinoya, kesatiq, piching) odamzod fe'l-atvoridagi keskinlikni tafovutlasa, xarakterlararo ixtilof ijtimoiy munosabatlar raqobatini ham tig'izlashtiradi. Xususan, N. xarakterida ham shaxsiy, ham ijtimoiy mohiyat zidligi o'z ifodasini topadi. SHaxsiy manfaat ijtimoiylashuvi va ijtimoiy talab shaxsiylashuvi talqinda mukammal ko'rinish hosil qilgan.

Syujet borliqni ham idrok, ham ifoda, ham baholash teranlashuvida muhim rol o'ynaydi. Zotan, u mohiyat e'tibori bilan voqelik va tasviraro muqoyasa munosabatini shakllantiradi. Inson ahvoli-ruhiyasi-ijtimoiylik belgilari aynan badiiy talqinda bir-birini taqozo etadi. SHaxs va jamiyat maqsad-intilishlari, manfaat-ehtiyojlari uyg'unligi to'liq ta'minlanadi. Fabulada so'z joriyligi va g'oya muqarrarliligi to'la markazlashadi, mushohada mantig'i va ma'no to'ldiruvchisi o'zaro sintezlashadi. Binobarin, voqelik butunligi qatida sintaktik qator hamda ijodiy barqarorlik yaxlitlashadi:

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 65.

N. dahlizdagi odamlarning shovur-shuvuri bosilib, bir necha soniya jimlik cho‘kkanini sezdi. Uchta xodim ham juda noqulay vaziyatda qolgan, ustiga-ustak dahlizdagi odamlarning qabristonga borishga astoydil tayyorgarlik ko‘rishgani yuzlaridan shunday ko‘rinib turardi. N.ning o‘zi ham shuncha odamni qabristonga borishdan mahrum qilishi mumkinligini o‘ylab xijolat tortdi¹.

Har bir badiiy asar – yaxlit bir olam! Bu olamga kirib borish adib yaratgan ijodiy voqelik ko‘pqatlamligi va nafosatiga erishish kafolatidir. Unda favqulodda nafosat va estetik idrok, ma‘rifiy ilg‘am va ma‘naviy tajriba o‘zaro tutashadi. Nozik kuzatish va jonli mushohada nisbati san‘at mag‘zini asoslaydi. SHu ma‘noda, muallifning xos talqini hayot ruhiy bo‘shliqlarini to‘ldiradi. Xos talqin alohida ijodiy yondashuvni taqozo qiladi. Syujetda badiiy yaxlitlashadigan manerada yozuvchi poetik ifoda madaniyati jilvalanadi. Aslida badiiy idrok shakl va mazmun uyg‘unligini ta‘minlaydigan muhim halqa bo‘lib, ham nazariy, ham amaliy mohiyat kasb etadi. To‘g‘rirog‘i, tasvir ruhiyati va ifoda mustaqilligi ichki raqobati fabula tabiatini dalolatlaydi. SHakldan mazmunga qarab harakatlanadigan asosiy tushunchada ijtimoiy voqelik ruhiy asoslari muayyan aniqlikka erishadi. SHu ma‘noda, har bir badiiy talqin o‘ziga xosligini mavjudlik va imkoniyat o‘rtasida shakllanadigan badiiy idrok tamoyillari belgilaydi.

N.Eshonqulning «Go‘ro‘g‘li» romanida «epik va daramatik turning eng kuchli jihatlari – eposga xos ko‘lamdorlik hamda dramaga xos shiddat va voqealarning o‘quvchi ko‘z oldida kechishi – uyg‘un birikadi. Romandagi dramatik ko‘rinishlar, bizningcha, sof dramatik asardagi ko‘rinishlarga nisbatan reallikka yaqinroq, hayotiyroq. Zero, bu ko‘rinishlar rivoya vositasida tayyorlangani uchun ham dialoglarga (personajlar nutqiga) dramadagi kabi holatni oydinlashtiruvchi jumalarning kiritilishi talab qilinmaydi. SHunga ko‘ra, romandagi daramatik ko‘rinish (uning asosini, tabiiyki, dialoglar tashkil qiladi) o‘zining shiddati, ma‘no sig‘imining kengligi va ifoda kuchi bilan dramadagidan ustunroqdir. Bevosita ko‘rinish chog‘ida ham rivoyaning o‘rni beqiyosdir: roviy bu o‘rinda personajlarning mimik-pintomimik harakatlari, tovush tonalligi, gap ohangi, yuz-

¹ Ko‘rsatilgan adabiyot, -B. 69.

ko‘z ifodasi haqida eng muhim ma’lumotlarni berib boradi – o‘quvchi sahnaga muallif ko‘zi bilan qaraydi»¹. Binobarin, badiiy shakl epos qonuniy vorisi, unda epik tafakkur kengligi, drama keskinligi va lirik ifoda tovlanuvchanligi bir-biriga moslashadi. Umumiy mohiyatni boshqaradigan rivoya monolog va dialog onga munosabatini belgilaydi, ruhiy kechinma keskinlikni yumshatishiga zamin hozirlaydi, davr ruhiyati badiiy maqsadda jipslashuvini detallashtiradi, romantik kayfiyat realistik tamoyilida mantiqiy dalolatlanishiga yo‘l ochadi. Ruhoniy manzaralarni yorqin ifodalashda janr imkoniyatlari ancha keng. Mazkur adabiy turda tuyg‘u va ong sathlari o‘zaro muqobillik kasb etadi. Muvoziy chiziqlar qahramon ham holati, ham faoliyatini yaxlit tasavvur etishga sharoit tug‘diradi. Bayon usuli vazifadoshligi estetik tayanch markaziga intilish ustuvorligi bilan izohlanadi. Matn syujetini N. atrofida shakllanadigan voqelik tayin etadi. Bir nechta tafsilotlar o‘lchamida kengayadigan hodisot jamiyat hayotini to‘liq qamrash va tahlillashga yo‘naltirilganligi bois e’tiborni tortadi.

Adabiy talqinda voqelik zanjiri – oddiy tushunmovchilik oqibatida siqilayotgan, beadog‘ iztiroblar og‘ushida esankirab qolgan shaxs qismati turli xil jug‘rofiy qatlamlarda tasvirga olinadi. Asarni – kichik-kichik ruhiy manzaralardan tashkil topgan yaxlit tizim desak, haq gapni aytgan bo‘lamiz. Negaki, talqin va tasvir mohiyatida – odamzod orzu-o‘ylari, istak-intilishlari, talpinishlari, sog‘inchu sevinchlari o‘ziga xos tarzda tasvirlanadi. Bunday hol keyingi yillarda xususan – modern adabiyoti vakillari ijodida tez-tez ko‘zga tashlanib turadi. Ayniqsa, yozuvchi ijodida qabarib ko‘rinadi. Ayonki, badiiy ifoda tarziga ko‘ra, undagi har bir jumla qahramon ruhiyatini, qilmish-qdirmishlarini ayon etish barobarida, yana yangi fikr tug‘diradi. SHu ma’noda, romanda so‘zlar aslo jaranglamaydi, yaltiramaydi, shovqin-suron ko‘tarmaydi. Ular ma’yus, mahzun, dardchil va dilgir suhbatdosh sifatida hosil bo‘ladi. Ular hamisha odamni o‘ylashga, o‘zini tanishga, o‘zligini anglashga va shu jarayonda o‘zligini ayon etishga undaydi. SHu taxlit jozib hamda sirli tafakkur madaniyatiga yetaklaydi. Ma’naviy-intellektual hayotda

¹ Quronov D. CHo‘lpon nasri poetikasi. –T.: «SHarq». 2004. –B. 224.

tajassum topadigan psixologik kechinmalar manzarasi bilan tanishtiradi, mushohada ifodasi va ma'nosini anglatadi:

– Nima bo'lganda ham hurmatli T. – dedi u xijolat bo'lganini yashirmay. – Bu tadbirni to'xtatish zarur. Juda xunuk ish bo'libdi. Kecha ham meni bittasi o'lgan deb o'ylab uyidan haydab chiqardi.

– Bu bizning qo'limizdan kelmaydi, – dedi o'rtadagisi, – sizni ko'mish ministrlik bilan kelishilgan. Ehtimol, ministrning o'zi ham qatnashar. Axir ularga qanday qilib yanglishibmiz, deb ayta olamiz. Yo'q, bu sira mumkin emas.

Yonidagi ikki sherigi ham bir ovozdan “mumkin emas”, deb tasdiqladi.

Dahlizdagilar ham bosh chayqashga kirishdi: biri chapga, biri o'nga bosh chayqab, buning iloji yo'qligini tasdiqlashardi¹.

Lavhada yozuvchi qahramon iztiroblarini – adog'siz mushohadasini, telba-teskari hayotini mahorat bilan yoritadi. Adib hodisotni baholashga sira shoshilmaydi, balki munosabatni izhor etishga kirishadi. Chunki shu munosabat orqaligina biz ko'pincha ko'ngil atalmish sirli mehvarga nazar tashlaymiz. Faqat ugina bizga hayot ikir-chikirlarigacha anglashga zamin hozirlaydi. Voqelik ruhiyati qahramon tabiati, kayfiyati, kechinma va his- tuyg'ulari, bir so'z bilan aytganda, butun ichki hayoti, shu hayot oqimlarini boshqaradi. Adabiy talqin o'z-o'zini tahlilu taftish qilar ekan, ma'lum ma'noda kitobxon ko'z o'ngida xos siyratini namoyon qiladi. Qahramon xarakterini yozuvchi asar voqealari davomida bosqichma-bosqich ochib boradi. Uning portreti hamda gap-so'zlari orqali ko'z oldimizda gavdalana boradi.

Ruhiy tahlil imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanligini asar misolida kuzatish mumkin: zohiriy va botiniy tuyg'ular, ijtimoiy muhit, hayot turli ziddiyatlari, qahramon qiyofasiga chizgilar shuni dalolatlaydi. Bu masala bir jihati. Ikkinchi va eng muhim jihati shundaki, barcha baxtsizliklar voqealar ko'lamidi o'sib-ulg'ayib, mutelik kayfiyati tarzida hosil berar ekan, avvalo hammasiga odamzod o'zi sababchi bo'ladi. Inson iqboliyu zavoli, o'z tabiati va shu inson voyaga etgan jamiyat ma'naviy-axloqiy asoslari bilan bog'liq kechadi. Zotan, N.Eshonqul bu

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 72.

romanda har ikki holatni tahlil sahniga lib chiqqan bo'lsa ham, uning e'tibori hammadan ko'proq qanday qilib bir xil tuyg'u va fikr tufayli boshqa fikr va tuyg'uning rivoj olishiga qaratilgan. Biron holat yoki taassurot natijasida bevosita paydo bo'lgan tuyg'uning xotira va xayolda paydo bo'ladigan har xil fikr ta'siriga berilib, boshqa tuyg'ular holiga kirishni, yana dastlabki holiga qaytishni butun shu holatlar dunyosida sayr etib, o'zgarib, yana va yana daydib yurishini qahramon timsolida hikoya qilib borar ekan, dastlabki tuyg'u natijasida paydo bo'lgan fikrning boshqa bir fikrga olib borishini yana undan ham nari o'tib, sayr qilib yurishini, shirin xayollarni, haqiqiy hislarga qo'shib yuborishni kelajak to'g'risidagi orzularni hozirgi zamon refleksiyasi bilan qo'shib yuborishini o'zgacha bir teran fikr bilan mushohada qiladi. Ana shunday fikrdan-fikrga o'tib yurish asar qahramoni faryod va nidosi keyingisida tasvirlangan norizo va bo'ysunmas isyonda davom etadi. Turmush ziddiyatlari, ketma-ket muvaffaqiyatsizlikka uchrashlar asar qahramoni botiniy olamida kuchli ruhiy tebranishlarga olib keladi. Unda asta-sekinlik bilan istiqbolga ishonch hissi yo'qoladi. Bir qarasang, tubsiz, qop-qorong'u ko'ngilda miltillab turgan nurga ko'zing tushadi. Ana shu nur ko'ngilda hayotbaxsh umidlar tug'diradi. Bir qarasang nur ham o'chganday...

Bu oniy kechinma boshlanishi edi. Tasvir boshlab bergan oniy kechinma asta-sekin muhitga tutashadi. Ikkalasi uyg'un tarzda o'tmish, bugun va kelajak tarzida qahramon botinida yuz berayotgan voqealar ko'lami bilan asta sekin yo'g'rila boradi. Qahramonlar xarakterida voqealar, vaziyat, muammolardan kelib chiqmaydigan, ular bilan asoslanmaydigan psixologizm asarni buzadi. SHuning uchun ham yozuvchi voqealar bilan psixologik holat o'zgarishlar orasidagi munosabatni to'g'ri belgilashga urinadi. Kahramon ichki dunyosidagi ichki holat o'zgarishi – ruhiy dialektika asardagi fikr oqimini gavdalantirish, etakchi g'oyani ifodalashga qat'iy bo'ysundiriladi. Bu holat esa ruhiyatni muayyan tartibga soladi, obrazli qilib aytganda, bir qancha fazalarga bo'ladi. Uning har bir fazasi katta dengiz to'lqini, uzoqlardan talpinib kelib qirg'oqqa urilib, qaytgani singari zo'rayib keladi-da, ma'lum bir tabiiy sabablarga duchor bo'lib qaytadi. Uning

ketidan ikkinchi faza boshlanadi. Ana o'sha fazalar ruhiy kechinmaning rivojlanish tarixini boshlab beradi va davr bilan tutashuvini belgilaydi.

«Badiiy asar ijtimoiy faoliyatni aks ettiradi, unga belgilangan aniq munosabatni ifodalaydi, aks ettirish hamda ifodalashni tasvirda yaxlitlashtiradi»¹. Darhaqiqat, matnda aks ettirish, ifodalash va tasvirlash bosqichlari uyushadi. Adabiy ittifoq tizimchalari badiiy tizim joriyligi ta'minotini shakllantiradi. G'oyaviy mazmun saylovidan estetik talqinga o'tish uning tabiatini tasdiqlaydi. Biroq mazkur mantiqiy aloqa poetik shaklga daxldorlik kasb etishi lozim. Ijtimoiy dunyoqarash va estetik kadriyatni birlashtiradigan tushuncha muntazam dinamik taraqqiyotga intiladi. Jamiyat ijtimoiy amaliyotini to'ldirish hamda ichki hamkorlikni ta'minlash matn etakchi xususiyati. Vaholanki, san'atkor real voqelikdan material tanlaydi va tartibsiz hamda mavhum jarayonga jilo beradi. Ayni paytda, badiiy qadriyat darajasiga ko'tarilgan hodisani jamiyat hukmiga qaytaradi. Uzlüksiz kechadigan munosabatlar jamuljami madaniyat mezon va estetik idealni yaxlit ijodiy materiyaga singdiradi. Estetik samarador mohiyat aslida hissiy idrok qirralarini tavsiflaydi. Unda ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasi va muayyan dunyoqarash o'lchami, hayot haqiqati va badiiy ifoda muqobilligi, tasvir ruhiyati va ijodiy qamrov taraqqiyoti, moddiy asos va uning hissiy o'rinbosari jipsligi, millat negizlari va jamiyat axloqiy butunligi o'zaro qorishib, tizimda uyg'unlashib ketadi.

2.2. “Go‘ro‘g‘li” romani va “Evrilish” hikoyasida o‘xshashlik va o‘ziga xoslik

Badiiy so‘z madaniyati, xususan nasr estetik idrok va g'oyaviy maqsad ittifoqini uyushtirar ekan, uning asosini ichki hamda tashqi munosabatlar intizomi tashkil etadi. Boshqacharoq aytganda, mantiqiy tafakkur izchilligi hayotiy materialning amaliy ishlanganlik darajasini belgilaydi. Aslida san'at madaniy mezon va estetik a'molga asoslanadigan qadriyaviy tizim, uning tahlil markazida doimo badiiy ijod tamoyillari turadi. To'g'rirog'i, mazmun-shakl-uslub-vazifa inson hissiy madaniyatida to'liq moddiylikka erishadi. O'z navbatida, estetik idrok hissiy bo'yoqdorlikni reallashtiradi. Voqelikka ongli ijodiy yondashuv

¹ Polyakov M. Voprosy poetiki i xudojestvennoy semantiki. –M.: Sovetskiy pisatel', 1986. –S. 45.

xoslanganlik darajasi tasvir miqyosi va ma'no ko'chishi ziddiyatiga borib taqaladi. Adib nuqtai nazari, munosabat xarakteri badiiy muhokama xususiyatini belgilaydi. Ifoda tarzi, shaxs va jamiyat vobastaligi, g'oya izchilligi va anglash daxlsizligi masala mohiyatini oydinlashtiradi. Shu ma'noda, adabiy talqin muntazam tarzda ijtimoiy ehtiyojdan estetik idrokka o'tib turadi. Hissiy ilg'amda muayyan daraja hosil qiladigan badiiy mohiyat asli ijodkor fitrati hosilasi bo'lib, aqliy salohiyat zahirasi esa san'atkor dunyoqarashini belgilab beradi:

N. ishning bu darajada jiddiy tus olishini kutmagan edi. Agar ministrning o'zi ham kelmoqchi ekan, bunga Rahbar bosh qo'shgan va hammasi hal bo'lgan. Biroq u birdan qo'rqib ketdi: bular qabristonga kimni ko'mishga boradi, axir u tirik-ku! Idorada boshqa hech kim o'lmagandi. U xodimlardan shunday deb so'radi¹.

Ma'lumki, janr adabiy asarlar tarixan shakllanuvchi tipi. Tarixiy kategoriya sifatida olib qaralsa, badiiy shakllar sistemasi muttasil harakatda yashaydi. Binobarin, yangi janrlar vujudga kelishi, takomili yoxud iste'moldan chiqishi qonuniy jarayon sanaladi. Ayni paytda, har bir alohida janrda ham muttasil tarzda sifat o'zgarishlari kuzatiladi. Chunki uning shakliy va mazmuniy xususiyatlari tinimsiz o'zgarib borishi badiiy ijod amaliyotining doimiy yangilanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Muammo yana bir jihatini yangi davr adabiyoti misolida kuzatsak, an'anaviy janr kanonlari hamisha emirilib borishining ham guvohi bo'lish mumkin. Zotan, badiiy ijodda individ roli muttasil ortib borishi natijasida muayyan janrda yaratilgan har bir asar o'ziga xos janriy xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi. Har bir davr adabiyotida bo'lganidek, istiqlol yillari o'zbek adabiyotidagi janrlar tizimi ham adabiy an'ana va adabiy aloqalar natijasi o'laroq rang-baranglashib bormoqda. So'nggi yillarda dunyoda kechayotgan integratsiya va yurtimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari keng ko'lamli tahlil hamda tadqiqni talab qilganligi bois, roman janri faolligi, milliy va xorijiy adabiyotlarga xos xususiyatlarni o'zlashtirishi jadallashdi. Bu holat zamonaviy o'zbek romanlarini yaxlit o'rganishni taqozo etadi. Boz ustiga, hanuzgacha roman nazariyasi borasida umume'tirof etilgan tugal ta'limot mavjud emas. SHu

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 72.

ma'noda, nazariy xulosalar ham romanchilik taraqqiyoti muayyan bosqichiga daxldor bo'lishi tabiiy hodisa, albatta! Zotan, janr ichki takomili doimiy jarayondir:

– Biz yosh va navqiron, hammamiz uchun qadrli bo'lib qolgan do'stimizdan ayrildik. Bu kun hammamizning ko'nglimizda abadiy saqlanib qoladi. N. g'oyat xushmuomala, odobli, g'ayratli va kelajagi porloq yigit edi. Uning biron kishi bilan gap talashganini yoki qo'pollik qilganini hech kim eslay olmaydi. U favqulodda madaniyatli yigit edi. Uning xudkushlik qilganiga shaxsan men ishonmayman va izquvarlarimizdan bu jinoyatning tagiga etishlarini talab qilaman. Bizning xodimlarni hech kim xo'rlashga haqi yo'q. Bu jinoyatni butun idoraga, butun ministrlikka nisbatan qilingan jinoyat deb baholayman. Bizda har bir xodim izzat va e'tiborda. Biz seni naqadar e'zozlar edik, hurmatli N. Kelinglar, bugun u bilan vidolashar ekanmiz, uni qanchalik sevganimizni, hurmat qilganimizni namoyish qilaylik. Xodimimizning qabri xor bo'lmasligi uchun ministrlik qabr ustiga marmardan ishlangan tosh o'rnatishga qaror qildi. Sizlar ham hamkasblaringizning qabrini muntazam ziyorat qilishga, yaxshi-yomon kunlarda eslab turishga so'z beringlar. Qabrda tinch yot, qadrdon do'stim. Sen ulgurolmagan ishlarni biz davom ettiramiz va nomingni hech qachon unutmaymiz!¹

Janr badiiy so'z madaniyati tig'izlashgan mohiyati. SHuning uchun ham unda inson-shaxs-jamiyat tafakkuri estetik in'ikos topadi. Adabiy shakl barqarorligi janr imkoniyatlari takomilini belgilaydi. Odam bolasi ijtimoiy-ruhiy mohiyati badiiy yaxlitligini to'laqonli aks ettirish aynan romanga xos xususiyat. Plastik poetik shakl qamrovining o'ziga xosligi adabiyotshunoslik nazariyasi va estetikasi joriy bosqichida keskin bahs-munozaralarga omil bo'lmoqda. Bu holat tinimsiz yangilanib turadigan badiiy shakl spetsifikasini belgilash barobarida milliy roman tizimi ijodiy imkoniyatlari tugallanmaganligi, ayni paytda, janr milliy jo'g'rofiyasini kuzatish, istiqlol ma'rifati romaniy tafakkuri miqësi sarhadlarini tayin etishga zamin hozirlaydi. Ijtimoiy yo'naltirilgan estetik mohiyat, shaxs manfaat-qiziqishlaridan davr ruhiyatiga evrilish bosqichlari izchilligi hamda

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 79.

qadriyaviy mezonlarni qaror toptirish uning tabiatini sharhlaydi. Aslida epik maydon kengligini ta'minlash mohiyat tugalligini hosil qiladi. SHu ma'noda, romaniy tafakkur tizimi badiiy mushohada yaxlitligini namoyon etadigan falsafiy tushuncha hisoblanadi.

Akademik M.Qo'shjonov e'tirof etganidek, «Asar kompozitsiyasi badiiy ijodning jiddiy yondashishni talab qiladigan muhim nazariy masalalaridan biridir. Inson o'z ijodiy faoliyatining barcha sohasida kompozitsiya to'g'risidagi muayyan prinsiplarga amal qilishi bejiz emas. Kishilar bunga ko'p vaqt o'rnashib qolgan an'analar asosida, ongli ravishda, ba'zan esa go'zallik tuyg'usi ta'sirida beixtiyor amal qiladilar. Adabiyotshunos olimlarning asar va darsliklarda kompozitsiya: «asarning qurilishi, uning tarkibiy qismlari joylashtirilishi, voqealarni bayon qilish tartibi», deb ta'riflanadi. Biroq voqealarni tartibga solishda asosiy, tashkil qiluvchi kuch – yozuvchining maqsadi ekani e'tibordan chetda qolib ketadi»¹. Olim fikr-qarashlaridagi bir nechta jihat e'tiborni jalb qiladi. *Birinchidan*, kompozitsiya mustaqil shakllanish tarziga hamohang tizim, *ikkinchidan*, yozuvchi maqsadi va hayotiy mantiq uzluksizligi uning boshqaruv komponenti, *uchinchidan*, go'zallik qonuniyatlarinigina hisobga olish tushuncha cheklanganligini tasdiqlaydi.

Asriy tajriba hamda o'ziga xos badiiy an'analar mohiyatiga singib borayotgan o'zbek romanchiligi o'zining muntazam taraqqiyot bosqichlarida davr etakchi muammolari, shaxs fenomeni ko'ngil evrilishlarini muayyan darajada individual tarzda ifodalab kelgan. Uzluksiz kechayotgan bu jarayon ayrim halqalarida nasr yakrang yo'nalish va ohanglardan foydalangan bo'lsa, o'zga bosqichida turfa shakllarga ijodiy yondashib, ifoda hamda tasvirda yangilanayotgan vosita va usullarni istifoda etdi. Binobarin, yangi davr o'zbek romanchiligi XX asr roman taraqqiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa, qadriyaviy mezonlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu hol bizningcha, quyidagi jihatlarda yorqin ravishda namoyon bo'ladi:

- yozuvchilarning voqelikni poetik idrok etishidagi o'ziga xoslik;
- ijodiy ilg'am kengligi va badiiy sintez teranligi;
- ramziy-majoziy mohiyat ustuvorligi;

¹ Qo'shjonov M. Saylanma. 2-jild. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983. –B. 253-254.

-obrazlar favqulodda assotsiatsiyalar, kontrastlar mantiqiy tadrijini tayin etishi;

- ruhning oniy lahzalarini ilg'ashga, ya'ni voqelikni sintagmatik emas, balki paradigmatic qamrashga moyillik;

- shaklning lakonik xarakter uzvi va falsafiy mushohada kengligini boshqarishi;

- intellektual daraja bosimi yorqin namoyon bo'lishi;

- badiiy tahlil va talqin nafaqat adib, balki kitobxon faol ishtirokini ham taqozo etishi.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni o'zida tajassum etgan milliy romanchilik badiiy tadrijini istiqlool ma'rifati va ma'naviyati negizida shakllanayotgan ifoda ijodiy mustaqilligi, favqulodda qiyofa kasb etayotgan tasvir ruhiyati dialektik aloqadorligi, tafakkur madaniyati evrilishlari belgilab bermoqda. Millat romaniy tafakkur madaniyati ufqlarini jiddiy yangilashga intilayotgan avlod X.Do'stmuhammad, T.Rustamov, U.Hamdamov yanglig' ijodiy qatlamni voyaga etkazdi. Bu adiblar har biri o'ziga yangi so'qmoqlar ochishga intilayotganligi, mavjud an'analar asosida xos badiiy ohangini yaratishga urinishlari bilan alohidalik kasb etadi. Kenja avlod safiga dastlabki romanlari bilan E.A'zam va N.Eshonqullar qo'shilishdi:

– Albatta sizni... – bir oz tutilib javob berdi T. Ammo aytgan gapidan o'zi uyaldi, shekilli, – hammasi sizning nomingiz bilan bajarilayapti, – dedi izidan yumshoqroq qilib.

– Meni ko'mish mumkin emas, – dedi noxush bir hodisadan ko'ngli g'ashlanib, – men axir tirikman. – Biroq gapi shunday qat'iyatsiz chiqdi-ki, u birdan xijolat tortib to'xtab qoldi.

– Aytishga oson, – dedi T. uning dovdiraganini sezib.

– Aytishga oson! – deb takrorladi hamrohlari ham. Ular bir-birlari bilan ko'z urishtirib olishdi¹.

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 73.

«Go‘ro‘g‘li» romani kompozitsiyasi bir-biriga tarang mantiqiy munosabat hosil qiladigan taassurotlar jamuljamidan iborat. Muallif talqin va dunyoqarash orasidagi ruhiy bo‘shliqlarni tasavvurlar bilan to‘ldiradi. Unda buyuk rus adibi L. N. Tolstoy yig‘ma metodini yodga soladigan usul keng tafakkur miqyosi bilan e‘tiborni tortadi. Odatiy kechayotgan kunlardan birida N. «qat‘iy intizom»ni buzadi. Qahramon o‘zining tiriklar safidan o‘chirilganini eshitib dahshatga tushadi. U mavjud mezonlarga bo‘ysunishni istamaydi. G‘ayritabiiy hukm tezda jamiyat diqqatiga sazovor bo‘ladi. Adabiy talqin kinoyaga yo‘g‘rilgan «meganutq» ifodasi, qabariq mushohada hayot oqimi shiddatiga hamohang. Kayfiyat hamda ruhiy holat tezkor o‘rin almashinuvlari falsafiy-majoziy mushohada teranligini ta‘minlaydi. unda mushohada tahlil quyuqligini hosil qiladi.

Roman komponentlari uchun xos xususiyatlardan yana biri olamni idrok etish miqyoslari darajalanishida namoyon bo‘ladi. Mustaqil ijodiy a‘zolar adabiy ongdagi yaxlitligi (tasavvur-dunyoqarash-falsafa) ifoda tizimini yagona estetik markazga yig‘adi. Unda qism va butunlik nisbati, mushohada va tarix ziddiyati, shakl va takomil uyg‘unligi iste‘foda topadi. Ma‘lum bo‘ladiki, adib g‘oyaviy ibtidoda haqqoniylikka erishish jarayonida erkin va ratsional tahlil imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Muallif inson idrokini har xil aqida hamda turg‘unlikdan tozalashga urinarkan, kinoya, kesatiq, piching kabi tasvir vositalarini adabiy talqinga tenglashtiradi:

– Sizning barcha hujjatlaringiz kechayoq marhumlar qatoriga qo‘shib qo‘yilgan. Biz uchalamiz kecha ertalabdan buyon tinganimiz yo‘q. Bugun soat o‘nga tayyor bo‘lsin degan buyruq bo‘ldi. Biz buyruqni shoshilinch bajarishga majburmiz.

– Axir hech qursa o‘likni ko‘rib, men emasligimni sezgandirsizlar? – N. ularni bir oz hovuridan tushirmoqchi bo‘ldi¹.

Roman kompozitsion markazida shakllanuvchi ong badiiyati asar uslubiy xoslanganlik darajasini sharhlaydi. Aniqrog‘i, adib mushohada kengligi hamda teranligini ta‘min etish maqsadida ikki ifoda usuli – dialog va monologlardan

¹ Ko‘rsatilgan adabiyot, -B. 78.

unumli foydalanadi. Zotan, ma'naviy-ma'rifiy-ijtimoiy hayotda qoim evrilishlar shiddati hamda tezkorligi batafsillikni hazm qilolmaydi. SHuni hisobga olgan muallif muloqot uslubini birinchi planga chiqaradi. Odatiy suhbat maqomidek tuyulgan bahslar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi: birinchidan, badiiy tafakkur makon va zamon sarhadlarini kengaytiradi; ikkinchidan, shakliy struktura ixchamligini etakchi poetik atribut darajasiga ko'taradi; uchinchidan, ifoda yo'sini qatida tasvir-talqin-tahlil xususiyatlari zichlashuviga zamin hozirlaydi.

Adabiy jarayonda kechayotgan murakkablashuvga bog'liq tarzda romaniy tafakkur komponentlari, janriy tadriji hamda taraqqiyot darajasi tasniflanadi. Zero, kuzatiladigan evrilishlar ko'lami ma'no maydoni hamda badiiy shakl mundarijasini chetlab o'tmaydi. Binobarin, ijodiy ibtido doimiy harakatda. Unga voqelik qamrovidan kelib chiqib emas, balki janrning tobora kengayib borayotgan imkoniyatlari hamda ijtimoiy ong darajasi yaxlitligi nuqtai nazaridan yondashuv maqsadga muvofiq. Joriy nuqtada ijtimoiy tafakkur tarzi ko'rsatkichi janr to'ldiruvchi komponenti darajasiga ko'tariladi. Anglashiladiki, insoniyat mushohada madaniyati qorishiq tabiatga ega ekanligi bevosita (davv ruhiyati in'ikosi) hamda bilvosita (qahramon tadqiqini to'liq aks ettirish)ga imkoniyat tug'diradi.

– Bo'lmasam-chi, – takrorladi chap va o'ng tarafdagi xodimlar. – Bu masalada hech kimga ishonilmadi. SHaxsan o'zimiz o'likxonaga bordik. Yuz, qo'l, oyoqdan hech narsani bilib bo'lmadi, biroq bo'yi, tanasining rangi va hujjat bizda shubha qoldirmadi.

SHundan keyin biz barcha hujjatlaringizni rasmiylashtirib qo'ydik.

– Hatto o'ringizga odam ham olindi! – deb yubordi bittasi.

– O'rnimga odam oldilaringiz?!. – N. endi kursidan turib, ularga yaqin keldi. Xodimlar har ehtimolga qarshi orqaga chekindi.

– O'zingiz bilasiz, – dedi T. uning yaqinlashib kelayotganini ko'rib, bir oz yumshoq ohangda, – idorada biron soat ham ish to'xtamasligi kerak. Ish masalasi kecha hal bo'lgan. Hujjatlaringizni elimlayotib, axir ertaga o'ringizda hech kim

ishlamaydi-ku, degan fikr o'tdi xayolimdan va tezda chora izlashga tushdik. Kechga yaqin shunday yigit topildi va Rahbar buyruqqa imzo qo'ydi¹.

Roman kompozitsiyasi tizimi murakkablik darajasi o'lchami boshqa janrlardan keskin farqlanmaydi. Unda epik maydon namoyon bo'lish tarzini umumiy qonuniyatlar harakati va estetik markazda uyushganlik darajasi belgilaydi. Mazkur janr shaklida esa quyidagi kabi poetik xususiyatlar qabarib ko'rinadi: a) muqoyasa muqobilligi va ixtilof uyg'unligi; b) tasvir jarayonida barqarorlik va beqarorlik o'rindoshligi; v) poetik mushohada dinamik fazilati; g) aniq-moddiy bayon izchilligi. SHu nuqtai nazardan, romaniy tafakkur milliy-umuminsoniy qadriyatlar mezonini belgilash barobarida dunyoni badiiy idrok etish darajasini ham aniqlashtiradi. U ijtimoiy ong shakli sifatida falsafadan davr ruhiyatini inkishof etadi. Ichki intizomaro uzviylik esa ijodkor konsepsiyasi: g'oya tiniqligi, mushohada aniqligi hamda talqin vazifadoshligini belgilab beradi.

Prof. B.Sarimsoqov ta'kidlashicha, «Ijodkor ongida asarning voqealar tizimi (syujeti), ularning muayyan tartibda bog'lanishi (kompozitsiyasi), voqealar tizimini harakatga keltiruvchi va dinamikasini ta'minlovchi personajlar, ularning faoliyati, makoni va zamoni kabi badiiy ijod uchun zaruriy shartlar bajarilgach, uning eng qiyin va og'ir bosqichi – ijodkor ongini, qalbini chulg'ab olgan g'oyani ifodalovchi barcha narsalarni so'zda tasvirlab yoki ifodalab berish, kitobxon yuragini zabt etuvchi shaklda bayon qilib berish jarayoni boshlanadi»¹ Darhaqiqat, ijodkor ongi romaniy tafakkur komponentlarini uyushtiradigan estetik markaz bo'lib, unda tasvir predmeti ifoda usulini shakllantiradi. Demak, tahlil ma'nosi talqin mohiyatini uyushtiradi. Alohidalik sifati esa ijtimoiy qadriyatni belgilaydi. Materiya maydoni mazmun tanlovini hosil qilib, harakat miqyosi hayot dasturini ta'minlaydi. Unda tahlil va tasvir uyg'unlashadi.

Estetik idrokda shakl-mazmun-uslub nisbati uyushadi va kompozitsion yaxlitlikni ta'minlaydi. Boshqacharoq aytganda, materiya mundarijasi nutqiy komponentlar intizomi va janr adabiy o'sish darajasi botiniy munosabati oralig'ida

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 79.

¹Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. –Toshkent: 2004. -B. 82.

shakllanadi. Badiiy axborot konstruksiya tasavvuriy barqarorligi va ijodiy g'oya ma'no evrilishlari uyg'unligida bosqichma-bosqich markazlashadi. Aslida, muayyan shaklning vazifaviy-kommunikativ jihatdan badiiy xoslanganlik darajasini ifoda yo'sini belgilaydi. Tasvir predmeti ijodiy an'ana va tajriba birikuvida namoyon bo'lib, komponentlararo uyg'unlikda to'la yuzaga chiqadi. Demak, badiiy mohiyat ruhiy va tahliliy mazmuni tuyg'u-ong-tafakkur tizimidan oziqlanadi. Tushuncha va harakat dinamizmi ijodiy konstruksiyada loyihalanadi. Vaholanki, ijodiy aloqa ziddiyati natijasi o'laroq adabiy tushuncha badiiy talqin shakli va estetik mazmuni bir-biri bilan raqobatga kirishadi:

N. eshikka qarab, u erda endi o'nlab kishi boshini tiqib turganini va yana orqada kimlardir boshini suqishga harakat qilib, shovqin qilishayotganini ko'rdi. Eshikdan mo'ralab turganlar ichida hamxonasi ham bor edi; u yonidagi sherigining qulog'iga N.ni ko'rsatib nimadir deb shivirlardi¹.

O'zbek adabiyotshunosligida hamon o'z qadrini nisbatan yo'qotmay kelayotgan fundamental tadqiqotlardan biri bo'lmish ikki jildlik «Adabiyot nazariyasi»da kompozitsiya tushunchasi «asarda ijodkor diqqat markazining yaqqolliigi, badiiy g'oyaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi katta va kichik qismlar hamda obrazlarning joy-joyiga qo'yilishi va ularning tasvir me'yori va maqsadga muvofiqligi»² tarzida baholanadi. I. Sulton «Adabiyot nazariyasi» darsligida «asarining turli qismlari orasidagi mutanosiblik, komponentlararo nisbat»³ mavjud bo'lishi kompozitsiya shakllanishi muhim omili ekanligiga e'tibor qaratadi. Binobarin, yozuvchi nuqtai nazari, hayotiy materialga ijodiy munosabati, bayon usuli o'ziga xosligi, juzvlarni estetik markazga yig'ish va o'rni-o'rniga joylashtirish atama murakkabligi va keng qamrovga egaligini mantiqan dalillaydi. SHu nuqtai nazardan yondashilsa, N.Eshonqulning «Go'ro'g'li» romanida muallif birdaniga g'oyaviy tayanch markaziga o'tmaydi. Inson mohiyati, ibtidosi-intihosi, hayot o'lchovi va tirikchilikdan kuzatiladigan maqsad to'g'risida falsafiy mushohada yuritgan adib yangilanayotgan tafakkur va ijtimoiy sharoit taqozosini

¹ Ko'rsatilgan adabiyot, -B. 84.

² Adabiyot nazariyasi, Ikki jildlik. 1-jild. -Toshkent: Fan, 1978. -B.265.

³ Sulton I. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent: O'qituvchi, 2005. -B.124.

mohirlik bilan badiiy tasvir qatlamiga uyg'unlashtirib yuboradi Kitobxonni asta-sekinlik bilan psixologik vaziyatga tayyorlagan nosir davr ruhiyati tasvirini qahramonga ko'chiradi.

Umuman, roman adabiy komponentlari har biri alohida adabiy birlik. SHunday ekan, ular o'z tabiatiga muvofiq tarzda nisbatan mustaqildir. Ayni paytda, ularning shakllanishi tarzi o'zaro mustahkam aloqadorlikda kechadi. Bunday ijodiy ittifoq hamda vazifaviy taomillar markazlashuvi uchun real mohiyat va tasvir chegarasi o'ziga xos uyushtiruvchi – yaxlitlikni ta'minlovchi faoliyat maydoni vazifasini o'taydi. Demak, badiiy ifoda obyektiv olam hamda estetik qadriyat tizimini birlashtiradi. Adabiy mohiyat esa, zamon umumkayfiyati g'oyaviy mundarijasini yagona organik butunlikda namoyon qiladi. Janr tabiatiga ko'ra qismlararo, butunlararo va tizimlararo munosabat davomiyligi ta'minlanadi. Bunday ichki aloqa va o'zaro hamkorlik miqësi esa shakl intizomini uslub tadrijiga muvofiq payvandlaydi. Unda kompozitsion markaz badiiy shaklning ichki uyushganlik darajasini tashqi mundarijaga muvofiqlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Kompozitsiya janriy jihatlarini mushohada zalvori, g'oyaviy-emotsional tuzilish, badiiy tizim qismlari, shakl mohiyati va ma'no ko'chishlari tizimi belgilaydi. Tasvir mohiyati bosh, asosiy va yordamchi qismlarni uyushtiradi.

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

Istiqlol davri o'zbek nasri g'oyaviy-badiiy yangilanishlar, o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Inson ruhiyatini taftish qilish, davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlariga hozirjavoblik bugungi kun adabiyotining eng muhim xususiyatlaridandir. Davr nasrida Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Asad Dilmurod, Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo kabi o'ziga xos uslubiga ega bo'lgan ijodkorlar qatorida Nazar Eshonqul ijodining ham muayyan o'rni bor.

Mustaqillikdan keyingi o'zbek romanchiligidagi katta muammolardan birini istiqlol yillari xalqning o'tish davri ziddiyatlari hamda unga nisbatan munosabati, qiyinchiliklar oldida turgan odamlarning o'zini tutishi masalasidir.

Nazar Eshonqulning „Go'ro'g'li“ romanida odamzod tabiatini ro'y-rost tasvirlash yozuvchi estetik tamoillarini belgilaydi. Shu bois uning achchiq haqiqatlari kitobxonga malol kelmaydi. Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun „Adabiyot“ majmuasida Nazar Eshonqulning „Maymun yetaklagan odam“ hikoyasi mustaqil mutolaa qilish uchun berilgan. Aynan Nazar Eshonqulning „Go'ro'g'li“ romanini ham maktab darsliklarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, oliy ta'lim muassasalari darsliklarida berilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. O'quvchilar majmuada berilgan hikoyalari bilan cheklanib qolmasdan, balki yozuvchining boshqa asarlari bilan ham yaqindan tanishib o'qib o'rgansalar maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarni asarni o'qishga qiziqtirish uchun undan qiziqarli ma'lumotlar berilishi kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchidan katta mahorat talab qilinadi.

Nazar Eshonqulning „Maymun yetaklagan odam“ hikoyasida odamlarga achinish, odam haqida qayg'urish hayot haqida o'quvchining ma'lum bir xulosaga kelishi-shularning hammasi o'zi bir yorug'lik.

Mavzuni yoritishda „SHAXMAT“, „BLITS“, „YELPIGICH“, „BUMERANG“ kabi metod va usullardan foydalanib dars o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Nazar Eshonqulning hikoya va qissalarini o'qitishda „Shaxmat“

metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu usulda Shaxmat ko‘rishida bo‘ladi. Ya’ni shaxmatning qora katakchalariga adibning hayoti haqida yozsalar, oq katakchalariga uning ijod yo‘li haqida yozishadi. Bu usuldan foydalanib dars o‘tilsa, nafaqat adib hayoti va ijodi haqida bilimlar bilan birga o‘quvchilarning esda saqlab qolish qobiliyatini shakllantiradi. Bu metodning yana bir afzallik tomoni shundaki, unda guruh bo‘lib ham yakka holda ham ishlash mumkin. Mavzuni o‘rgatishda “BLITS” metodidam foydalanish yaxshi samara beradi.

Guruh xatosi	Guruh bahosi	Yakka baho	Yakka xato	Voqealar ketma-ketligi

Bu metodda roman yoki hikoyalarini yoritishda o‘quvchilar voqealarning ketma-ketligini yaxshi bilishlari kerak bo‘ladi. Bu metodda ham o‘quvchilar guruh bo‘lib ham yakka halda ham bajaradilar. Natijada o‘quvchiningasarni qay darajada o‘qiganligi bilib olinadi.

DARS ISHLANMASI

Mavzu: O‘quvchilarni kitobxonlikga o‘rgatish.

Mavzuning obyekti sifatida: o‘quvchilarga Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasini va “Go‘ro‘g‘li” romani.

Darsning maqsadi: o‘quvchilarni badiiy adabiyot jozibasiga oshno qilish.

Ta'limiy maqsad: o'quvchining mavzuga oid ko'nikmalarini hosil qilish. Asardagi obrazlar tizimini tahlilga tortish va ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash;

Tarbiyaviy maqsad: insonning eng yaxshi fazilatlari sohibi bo'lib yetishishida, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, o'z-o'zini tarbiyalashida adabiyotning rolini anglash, badiiy asarlarni chuqur idrok etishga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning har tamonlama savodxonligini o'stirish, nutqiy salohiyatini oshirish.

Dars turi: noan'anaviy.

II. Darsning usuli: "BLITS", "SHAXMAT", "YELPIG" "ICH" metodlari.

III. Dars jihozlar: darslik, A4 formatidagi qog'oz, proyektor, plakat, rag'bat kartochkalari, badiiy asarlar.

IV. Darsning borishi: salomlashish, sinf ozodaligini tekshirish, davomatni aniqlash.

V. Uy vazifa so'rash. Shoyim Bo'taevning "Hisomiddin Al-Yog'iy" tarixiy hikoyasi.

VI. Yangi mavzu bayoni: Nazar Eshonqul XX- asr adog'i o'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan yorqin istedod sohibi sanaladi. Nazar Eshonqul 1962- yil 15- iyunda Qashqadaryo viloyati qamashi tumanidagi Tersota qishlog'ida tug'ilgan. ToshDU jurnalistika fakultetini tamomlagan (1986) Dastlabki asari - "Urush odamlari" (1988). Shundan so'ng yozuvchining "Momo qo'shiq" (1989), "Maymun yetaklagan odam" (2001), "Shamolni tutib bo'lmaydi" (2004), "Momo qo'shiq" (2006) kabi asarlari nashr etilgan. F.K. Anittining hikoyalar va qissalarini, A. Kamyuning esselarini, Chexovning "Boloxonali uy" hikoyasi o'zbek tiliga tarjima qilgan. Xususan, milliy hikoyachilik va qissachilikda jiddiy izlanishlar olib borayotgan adib ijodida shahs ruhiyati va jamiyat munosabatlari ziddiyatlari falsafiy terangligini umumlashtirish hayot haqiqati keskinligi hamda tahlil teranligini tayin etish tasvir ruhiyatining ifoda mustaqilligiga qadar yuksalishiga erishish, munosib ravishda badiiy shakl ichki intizomini "buzish" ga moyillik va uni yangi asosda qayta tiklashga intilish yaqqol


ko‘rinadi. Binobarin yozuvchi mudomi hayotning o‘zidan olgan zavqini o‘z yurak dardini hayajonlarini izhor etadi, o‘zi qalamga olgan hayot hodisalarini persanajlar qalbi va ruhiyatini murakkabligi ziddiyatlari chinakam nafasati bilan kitobhonga yetkaza oladi.

Darhaqiqat adib adabiy talqinida teran falsafiy mantiq shakliy evrilishlar tahlil ichki takomiliga erishish, so‘z madaniyati, marifiy qadryaviy tugallamasini barqarorlashtirish singgari xususyatlar kuzatiladi. Mazkur jihatlar yozuvchining dastlabki “Go‘ro‘g‘li” romani aynan muammo tasvir ruhiyati individualligi syujet va kompozisiya uzviyligi va ijodkor fitrati badiiy silsilasida o‘rganish joriy adabiyotshunoslik istiqbolli yo‘nalishlarini belgilaydi. Adib romaniga hos xususyatlardan biri ruhiy tahlil teranligi bilan izohlanadi. “Go‘ro‘g‘li”da qahramon turli vaziyat hamda jugrofiy sharoitlarga tushib qoladi. Nazar Eshonqul “Go‘ro‘g‘li” romani mantig‘ida muhim ijtimoiy ahloqiy talqin falsafiy taraqqiyoti ko‘zga tashlanadi. Aniqrog‘i adib umumlashtiruvchi qahramon (N) maishiy salnomasini yarata olgan. Adibning “Maymun yetaklagan odam “ hikoyasida esa qahramonlar o‘z hayotlarining behuda o‘tganligi umrlari davomida ishonib kelgan etqotlarini singanini, ular sig‘ingan mabudlar qulaganini anglab qolgan, o‘zlarini-o‘zlari tahlil va so‘roq qilayotgan, boshqacha aytganda hayotlarini boshqattan boshlash uchun o‘zlaridan kuch izlayotgan odamlar.

“Maymun yetaklagan odam”dagi cholga nisbatan bu iborani qo‘llab bo‘lmaydi bu yerda cholning nafrat bilan yashashi muhimmas. Muhimi chol o‘z etiqotdining puchligini anglagani va bu tuyg‘uni o‘quvchiga yuqtiraolgani hayratlanarli. Yozuvchiga cholning hayotidan kelib chiqadigan saboq tufayli o‘quvchida tug‘iladigan tasurot muhim. Aniqrog‘i “Go‘ro‘g‘li” romanida har bir qahramon o‘z shakillanish va taraqqiy topish tadrijiga ega. Hatto Dramaturg, Yordamchi kotiba kabi ikkinchi plandagi obrazlar to‘laqlonligi ham turli nuqtalar jamuljamida nomoyon bo‘ladi voqeylik dramatizmi yozuvchi xolis munosabatini dalolatlash barobarida inson qiziqish manfaatlari va ehtiyojlarini aniqlashtiradi. Badiiy muhokama inson harakteri murakkabligi, ruhiy holat va vaziyatlarda muttasil o‘zgarib turishi qahramon faoliyati shart-sharoitiga aloqadorligi,

favqulodda hodisa uning hayoti o'zgarishini ta'minlaydi. Bu jihat odamzot fe'l-atvorining chigalligi, voqelik shahs ko'ngliga uzluksiz hissiy ta'siri hosilasi.

1-slayd




2-slayd



Dastlabki asari-"Urush odamlari"(1988).Shundan so'ng yozuvchining "Momo qo'shiq"(1989),"Maymun yetaklagan odam"(2001),"SHamolni tutib bo'lmaydi"(2004),"Momo qo'shiq"(2006) kabi asarlarinashr etilgan.F.K.Anittining "hikoyalar va qissalar"ini,A Kamyuning "esselar"ini CHexovning "Boloxonali uy " hikoyasi o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Hususan, milliy hikoyachilik va qissachilikda jiddiy izlanishlar olib borayotgan adib ijodida shahs ruhiyati va jamiyat munosabatlari ziddiyatlari falsafiy terangligini umumlashtirish hayot haqiqati keskinligi hamda tahlil teranligini tayin etish tasvir ruhiyatining ifoda mustaqilligiga qadar yuksalishiga erishish, munosib ravishda badiiy shakl ichki intizomini “buzish” ga moyillik va uni yangi asosda qayta tiklashga intilish yaqqol ko’rinadi



Nazar Eshonqul “Go’ro’g’li” romani mantig’ida muhim ijtimoiy ahloqiy talqin falsafiy taraqqiyoti ko’zga tashlanadi. Aniqrog’i adib umumlashtiruvachi qahramon(N) maishiy salnomasini yarata olgan. Adibning “Maymun yetaklagan odam “ hikoyasida esa qahramonlar o’z hayotlarining behuda o’tganligi umrlari davomida ishonib kelgan etqotlarini singanini, ular sig’ingan mabudlar qulaganini anglab qolgan, o’zlarini-o’zlari tahlil va so’roq qilayotgan, boshqacha aytganda hayotlarini boshqattan boshlash uchun o’zlaridan kuch izlayotgan odamlar.



VII. Yangi mavzuni mustahkamlash: yangi mavzuni o’qitishda “BLITS” metodidan foydalaniladi. Bu metodda roman yoki hikoyalarini yoritishda o’quvchilar voqealarning ketma-ketligini yaxshi bilishlari kerak bo’ladi. Bu

metodda ham o'quvchilar guruh bo'lib ham yakka halda ham bajaradilar. Natijada o'quvchining asarni qay darajada o'qiganligi bilib olinadi. Shu tariqa o'quvchilar baholanadi.

VIII. Yakuniy qism: darsda, o'yin va topshiriqlarni bajarishda faol qatnashgan o'quvchilar a'lo baho bilan qolgan o'quvchilar 4 va 3 bahosi bilan baholanadi.

Uyga vazifa berish: Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasini o'qib kelish.

X U L O S A

XX asr o'zbek nasri adabiy taraqqiyot tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Binobarin, ming yillik avvalida shakllangan, asr o'rtalarida malakaviy jihatdan taraqqiy topgan hamda 90-yillar silsilasida ilg'or an'ana va tajribalar hisobiga boyigan epik maydon davr adog'ida tubdan yangilandi. Jiddiy evrilishlar ostonasida turgan milliy istiqlol davri o'zbek nasri, xususan romanchiligi o'z ichki imkoniyatlarini namoyish eta boshladi. Kuchli genetik ildiz va sharqona ifoda ruhiyatiga tutash adabiy tur ijodiy mustaqillik tushunchasini barqarorlashtirdi. So'nggi yigirma yillikda shakl-mazmun-uslub yo'nalishida kuzatilayotgan izlanishlar serqatlamligi, ko'p qirraliligi va konseptual rang-barangligi bilan badiiy teranlik hosil qiladi. Xususan, falsafiy-estetik qarashlar qorishiqligi, ijodiy tamoyillar o'zgachaligi va g'oyaviy-ramziy mohiyat istiqlol ma'naviyati hamda ma'rifati uyg'unlashuvida jozib manzaralarni muhokamaga qo'ymoqda.

O'tgan asr 90-yillari o'zbek adabiyoti halqasida roman adabiy janri mohiyati tub evrilishlarga yuz tutdi. Xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot xazinasini, shuningdek, romanchilik qariyb bir asrlik tajribasi, tubdan yangilangan ijtimoiy-estetik tafakkur va jahon adabiy-falsafiy fikri hayotbaxsh tajribalaridan oziqlanuvchi eksperimental shakliy-uslubiy izlanishlar mavjud andozalarni sindirish va turg'unlikka mahkum etilgan badiiy tafakkurni o'zgartirishni maqsad qilib qo'ydi. Jiddiy evrilish ham tuyg'u, ham ongda hosil bo'ladigan ziddiyatlarni idrok etish va g'ayritabiiy-shuuriy jarayon falsafiy-ijtimoiy teranligini uyushtirish taomillarini hosil qiladi. Romanchilik taraqqiyoti mazkur bosqichiga xos davr yig'ma metodi har bir san'atkor shaxsi muhrini o'zida jamuljam eta oldi. Zotan, ushbu davr adabiy mohiyati yagona hukmron mafkuraviy tazyiq iskanjasidan qutulgan, plyural qarashlarga keng yo'l ochilganligi bilan xarakterlanadi. Hayotiy ehtiëj o'zi o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan e'tiboran jiddiy o'zgarishlarni taqozo etdi. Natijada, nafaqat milliy-badiiy ong yangilandi, balki tig'izlashgan estetik tafakkurda miqyos va nisbat uyg'unligi, tasviru ifoda, talqinu tahlil o'rindoshligi yuzaga keldi.

Istiqlool davri adabiy solnomasi bosqichma-bosqich takomiliga xizmat qilayotgan asosiy omil uning mafkuraviy yakkahokimlikdan xalos bo'lishga tutashadi. Erkinlik sari yuzlanayotgan hamda turfalanayotgan badiiy ong tadriji ijodiy imkoniyatlar kengayib borayotganidan dalolat beradi. Aynan adabiy qamrov boyib borishi uslubiy rang-baranglikka yo'l ochadi. Yuksalish ostonasida turgan nasr halqasida qotishga moyillashgan talqin stereotipini sindirish tamoyili barqarorlashayotganligi quvonarli hol, albatta! Ijtimoiy fikr shakli va mundarijasidan badiiy munosabatlarga ko'chayotgan o'sish-o'zgarishlar ko'lami joriy kunda ancha teranlashdi. Fan-texnika inqilobi va globallashuv tizimining to'xtovsiz ta'siri so'nggi bosqich millat romanchiligida ifoda tamoyillari o'zgarishiga olib keldi. Yetakchi xususiyat estetik talqin murakkablashuviga olib keldiki, natija o'laroq, tasvirni yangicha aspektida tadqiq etish nazariy ehtiyojlar hosil qiladi. SHu ma'noda, bitiruv malakaviy ishida Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» romani badiiylik darajasi ilmiy tahlilga tortilib, unda tasvir va tahlil qorishiligi yordamida janr taraqqiyoti ochib beriladi.

Nazar Eshonqul «Go'ro'g'li» romani badiiylik darajasini kinoyaviy-parodik tafakkur o'ziga xosligi tayin etadi. Nisbiy tarqoq matnda ifoda xolisligi va yumshoqligini adabiy talqin barqarorlashtiradi. Tasvir ruhiyati bosh qahramon – N. sabab hamda oqibat tig'izligidan iborat. Unda ijodiy mohiyat jamiyat hajviy qiyofasidan voqelik keskin tanqidiga o'tish uchun zamin hozirlaydi. Muhokamada satirik chizgilar jiddiyligi haddan tashqari bo'rttirilgan tasvirda inson fojeasi muhit tajovuzkor qiyofasiga aloqalantirilishiga olib keladi. Muallif tomonidan muayyanlashtirilgan tahlilda xarakter hamda jamiyat muhim qirralari ko'rsatiladi. Ijodkor pozitiv munosabati xarakteri sezilmaydigan talqinda qahramon namoyishi mustaqilligi cheklanadi. To'g'ri, axloqiy qarashlar namoyon bo'lish tarzi romanda zich holatda gavdalansa-da, rivoya subyekti hamisha muallifga nisbatan ma'naviy daxlsizligini saqlaydi. Reportaj unsurlarini yodga soladigan tafsilotlarda mantiqiy bog'lam mavjud. Aynan idroklangan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan yozuvchining kinoyaviy badiiy pozitsiyasi o'zgaruvchanligi (samimiy mehr va jiddiy nafrat o'zaro uyg'unligi) talqin muvozanatini ta'minlaydi. Aslida

ijodkorning voqelikni parodik usulda taftish etishi qahramonga emas, balki uni shu ko'ygga solgan muhitga qaratilganligi bilan e'tiborni tortadi. Ijodkor fitrati bilan teng maqomga erishadigan qahramon faoliyati falsafiy konsepsiya mantiqiy takomilini tayin etish barobarida, ruhiy kechinmadoshlik mohiyatini ham Bir qarashda, N.ning o'limi vasiqasi muayyan ma'no salmog'i kasb etmagandek taassurot uyg'otadi. Biroq asosiy personaj xatti-harakatlari muntazam ravishda etakchi syujet chiziqlarini bog'lab turadi. O'z navbatida, san'atkor xolisligini kuchaytiradigan obrazda o'zaro aloqa qirralari jilvalanadi.

Matnda davr ruhiyati manzaralari mushohada-kuzatishlarga tayanadi. Uni mohiyatan birlashtirib turadigan voqelik va tarixiy o'lcham o'rtasidagi munosabat bevosita muhit axloqi haqida to'laqonli tasavvur beradi. Badiiy mazmun siljishi ifoda va umumlashma uyushgan kompozitsion yaxlitligini tavsiflaydi. Aynan hissiy idrok aniqlik hamda mavhumlikni bir-biriga yo'naltiradi. Ijtimoiy qadriyatlar tanlovi bir vaqtning o'zida ong va voqelikaro tasvir ruhiyatini shakllantiradi. N. hodisot shiddatidan ham tahlikaga tushadi, ham karaxt bo'lib qoladi. U birinchidan, mohiyatni anglay olmay hayratga tushsa, ikkinchidan, oqibat naqadar dahshatli tus olishidan cho'chiydi. Ijodiy tabdil va uning hayotiy-maishiy asosi ruhiyat tahlilini teranlashtiruvchi e'tirof etilgan hodisa. Aynan u syujet va kompozitsiya g'oyaviy-estetik ittifoqga birikuvini ta'minlaydi. SHu o'rinda ta'kidlash joiz, axborot zalvori hamda uning qadriyaviy mezonlarga tutashuvi badiiy yaxlitlikni hosil qiladi. Binobarin, tasvir predmetiga munosabat, badiiy aloqa tig'izligi bir butunlikni namoyish etadi. Adib odamzod fitratida mujassam qirralar namoyon bo'lish tarzini turfa miqyoslardan suvratlaydi, tahlillaydi hamda baholaydi. Obrazda esa ifoda qabariqligi kengayadi.

Tadqiqot mobaynida olib borilgan kuzatish va tahlillar quyidagi ilmiy-nazariy hukm-xulosalarga kelishimizga turtki beradi:

1. Nazar Eshonqul «Go'ro'g'li» romanida anglashilmovchilik natijasida murakkab vaziyatga tushib qolgan inson qismati tahlillanadi. Dag'al voqelik tasviri, badiiy tafakkur komponentlari mantiqiy joylashuvi va izchilligi uslubiy tamoyil, iste'dod darajasi, badiiy-estetik maqsad, poetik tafakkur madaniyati, ifoda

yo'sini, adabiy an'analarga munosabat bilan bog'liqlikda yuzaga chiqadi. Kompozitsion markaz asarning tizimli asosda tashkillanishi - ichki va tashqi adabiy sathlari birlashuvini ta'minlaydi.

2. Adabiy talqinda ma'naviy tanazzul, jamiyatni yemirayotgan muammo hajmi va shaxs omiliga munosabat hayotiy chizgilar vositasida yoritiladi. Matnda bir maromda kechayotgan qahramon maishati kutilmagan hukm tufayli (N. o'limi to'g'risidagi xulosa) fojeiy nuqtaga ko'tariladi. Muallif nozik mushohadalar orqali voqelik dramatizmini yaratadi. Adib inson fojeasini bilvosita muhit an'alaridan keltirib chiqaradi. Tushda kechayotgandek hayot tarzi uchun N.ni ayblab bo'lmaydi. Jamiyat a'zolari kabi u ham mute kayfiyat kishisi. Ko'r-ko'rona ishonch uning e'tiqodiga aylanayozgan. Aslida gap faqat fojea to'g'risida borganida vaziyatni baholash murakkablik tug'dirmasdi. Asosiy mohiyat turg'unlashgan tartib-qoidalar hukmronligida namoyon bo'ladi. Qahramonning harakatga kelishi, mavjudligini isbotlashga intilishi zahirida inson ruhiyati muayyan bosqichlarda «izdan chiqishi», me'yoriy holatdan nome'yoriy o'lchamga o'tishi suvratlanadi. Yozuvchi nozik kuzatishlarni jonli mushohadaga aylantirish vositasida manzarani yaxlitlashtiradi. Tugal tasavvurga asoslanadigan ifodada mohiyat voqelikka qarshilantiriladi. Aynan tasvir ruhiyatini tovlantirish yordamida adib talqinni qabariq vaziyatga yo'naltiradi. Tipik individual xususiyatlarni uyg'unlashtirish orqali ijodkor badiiy xarakter to'laqonliligini tayin etadi. Piching, kesatq va kinoya mazmunini tushunish kitobxonda unchalik murakkablik tug'dirmaydi. Negaki, oshkora-oydin niyat muqarrarligi badiiy tasvir qo'llanmasi tugallanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Ijtimoiy qadriyat badiiy yaxlitlikka aylanishida ritm, marom, ramz, timsol, obraz, g'oya kabi komponentlar uyg'unligi muhim o'rin tutadi. So'z tasvirga munosabati, ifoda g'oyaga mutanosibli, mushohada esa mazmunga mansubligi tabiiy-ijtimoiy-ruhiy-ijodiy tushuncha yaxlitligini estetik talqin markaziga chiqaradi. Demak, asar tashqi mundarijasi tadrijiy yo'nalishini adabiy mohiyatga evrilgan mohiyat barqarorligi belgilaydi.

4. «Go‘ro‘g‘li» romanida obraz amaliy ishlanganlik darajasi va ruhiy kechinmalari muvofiqligi etarlicha ta‘minlanmaganligi (N.), uslubiy g‘alizliklar, syujet va konflikt rivojida bayonchilikka berilib ketish, o‘rinsiz takrorlar, falsafiy mushohada tahlili yuzakiligi, monologik ong badiiyatida muallif munosabati ustuvorligi, xarakter tabiatini ochishda bir qadar mavhumlik ko‘zga tashlanadi. Bu holat roman chambarchaslik qonuniyati – syujet va poetik tarh tig‘izligiga ham salbiy ta‘sir o‘tkazadi.

5. Matnda tasvir yo‘nalishi bir nechta o‘lchami – publitsistik talqin, polifonik tafakkur unsurlari, falsafiy mushohadakorlik, psixologik tahlil uslublari in‘ikos topadi. Asar tayanch nuqtalarini jamiyat a‘zolari ruhiyati, ijtimoiy munosabatlar muqoyasasi tashkil etadi. Muallif inson borlig‘iga tahlil obyekti sifatida yondashadi, Unda tuyg‘u va ong ziddiyati kengayadi, unda tahlil va talqin bir-birini to‘ldiruvchi mazmunga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
4. Adabiyot. Badiiyat. Abadiyat. –T.: Yangi asr avlodi, 2004.
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. 2-jild. –T.: Fan, 1979.
6. Aliev A. Istiqlol va adabiy meros. –T.: O‘zbekiston, 1997.
7. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2002.
8. Boltaboev H. Mumtoz so‘z sehri. –T.: Adolat, 2004.
9. Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. –T.: Fan, 2006.
10. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
11. Karimov B. Yangilanish sog‘inchi. –T.: Adabiyot jamg‘armasi, 2004.
12. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. –T.: O‘zbekiston, 2008.
13. Mamajonov S. Saylanma. – T.: Adabiyot va san’at, 1981.
14. Mirzaev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2005.
15. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – T.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2007.
16. Mustaqillik davri adabiyoti. –T.: Adabiyot va san’at, 2006.
17. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. – T.: Adabiyot va san’at, 1980.
18. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: Ma’naviyat, 2000.
19. Normatov U. Ijod sehri. – T.: SHarq, 2007.
20. Umurov H. Tahlil san’ati. –T.: Adabiyot va san’at, 1978.
21. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: SHarq, 2002.
22. Xalizev V.E. Teoriya literatury. Izd. 3. – M.: Vysshaya shkola, 2002.
23. Parandovskiy Yan. So‘z kimyosi / Jahon adiblari adabiyot haqida. –T.: Ma’naviyat, 2010.

- 24.Rasulov A. Tanqid, tahlil, baholash. –T.: Fan, 2006.
- 25.Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. –T.: SHarq, 2007.
- 26.Rizaev Sh. Ma’naviyat manzillari. –T.: Adabiyot va san’at, 2008.
- 27.Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: 2004.
- 28.Sodiqov S. Ijodning o‘ttiz lahzasi. –T.: SHarq, 2005.
- 29.Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005.
- 30.To‘raev D. Davr va ijod mas’uliyati. –T.: Yangi asr avlodi. 2004.
- 31.Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –T.: SHarq, 2004.
- 32.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Fan, 2007.
- 33.Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –T.: Akademnashr, 2013.
- 34.Hamdammov U. Yangilanish ehtiyoji. –T.: Fan, 2007.
- 35.<http://www.literature.uz/>;
- 36.<http://www.ziyouz.com/>.